

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Daminova Gulbaxor

**Turli tizimdagi tillarda yahshilik va yomonlikni ifodalovchi maqol va matallar
tasnifi va korrespondensiyasi (ingliz,o'zbek va rus tillari misolida)**

**5A111401-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr
darajasini
olish uchun yozilgan
dissertatsiyasi**

Ilmiy rahbar:

f.f.n. dotsent V.Vositov

Andijon - 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB. PAREMIOLOGIYA LINGVISTIK TADQIQOT	
OBYEKTISIFATIDA	
1.1. Paremiologiya tushunchasi va u haqida ma'lumot.....	8
1.2. Paremalarning folklorshunoslikda o'rganilishi.....	16
Birinchi bob bo'yicha xulosa	26
 IKKINCHI BOB. TURLI TIZIMLI TILLARDA YAXSHILIK VA	
YOMONLIKNI IFODALOVCHI PAREMALAR TAHLILI	
2.1. Ingliz, rus va o'zbek tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqol va matallarning semantik tahlili.....	28
2.2. Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi paremalarning sintaktik tahlili.....	38
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	48
 UCHINCHI BOB. TURLI TIZIMLI TILLARDA YAXSHILIK VA	
YOMONLIKNI IFODALOVCHI PAREMALARNING STRUKTURAL	
TAHLILI VA LINGVODIDAKTIKA MASALALARI	
3.1. Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi paremalar strukturasini.....	50
3.2. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid bo'lgan o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari	57
3.3. Paremalarda lingvodidaktika masalalari	63
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	68
 UMUMIY XULOSA.....	 70

KIRISH

Bugun O'zbekiston Respublikasi yosh bo'lishiga qaramay, barcha rivojlangan davlatlar tan olgan va dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lgan mustaqil davlatlardan biridir. Respublikamizda bo'layotgan jamiyatning barcha sohasidagi yangiliklar O'zbekistonimizning yanada gullab yashnashiga olib bormoqda. Yurtimizda ayniqsa ta'lim jarayoniga katta e'tibor berilayotgani yoshlar ta'lim-tarbiyasiga o'zining ijobiy hissasini qo'shmoqda. Ayni vaqtda, O'zbekistonda chet tillariga, ayniqsa ingliz tiliga, bo'lgan qiziqish va talabning ortib borishi natijasida ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish bo'yicha yangi qaror va farmonlarning ijrosi davlatimiz miqyosida olib borilmoqda. Shu munosabat bilan Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, bugungi kunda mamlakatimiz uchun malakali kadrlar, shu jumladan malakali tarjimonlar, malakali chet tili o'qituvchilari davlatimiz uchun juda zarurdir. [2;45] Shuning uchun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari uchun yangi milliy dasturlar, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratildi va yaratilmoqda. Qiyosiy tilshunoslik chet tili o'qitishning lingvodidaktik asosini tashkil etadi. Shu sababdan yurtimizda xorijiy tillarni ona tili bilan qiyoslab o'rganish va ularni tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim masalalardan biridir.

Har qanday tilni o'rganishdan oldin, tarixni, tilning kelib chiqishini va eng asosiysi tilning barcha boyliklarini bilish kerak. Sababi xalq og'zaki ijodi xalqning buyuk tarixini, urf-odatlarini-yu an'analarini o'zida saqlab keladigan bebaho ma'naviy merosdir. Uni asrab-avaylash, avlodlardan avlodlarga yetkazish xalqning o'z tarixi va buyuk ajdodlariga bo'lgan cheksiz hurmatning, e'zozning ifodasidir. Xuddu shu nuqtai nazardan o'zbek xalq og'zaki asarlarini nashr qilish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini anglashdagi ijobiy o'zgarishlar tashabbuskori Birinchi Yurtboshimiz Islom Karimov va hozirgi kunda o'zbek

xalqining o'tmishini yanada sayqallash uchun qo'lidan kelgancha mehnat qilib charchamayotgan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev hisoblanadi.

Balki shuning uchun ham hozirgi zamon tilshunosligida, shu jumladan qiyosiy tilshunoslikda va folklorshunoslikda maqollarni chuqurroq o'rganish bugungi kun qiyosiy tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning muhim xususiyati shundaki, u fanlararo xarakterga ega bo'lib, ilm-fanning har bir sohasida tadqiq etilmoqda. Natijada paremiologiya, ya'ni maqollar, matallarni o'rganish tilshunoslikda alohida soha sifatida paydo bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. O'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning grammatik, semantik tomonlari bo'yicha uslubiy yo'sinda ko'plab ilmiy ishlar qilingan bo'lishiga qaramay, ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning struktural – semantik va sintaktik jihatdan tasnifi va uni qiyosiy tahlili hali to'la-to'kis yoritib berilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotda ingliz, rus va o'zbek tillaridagi maqol va matallarning struktural – semantik va sintaktik jihatdan tasniflash va uni qiyosiy tahlil etish asosiy maqsad qilib olindi.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish lozim deb topildi:

- Tilshunoslikda paremlar tushunchasi haqida ma'lumotni o'rganish.
- Paremlarning o'zbek xalq ijodida tutgan o'rnini aniqlash.
- Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqol va matallarni semantik jihatdan tahlil qilish.
- Turli tizimli tillarda paremlarning sintaktik tahlilini amalga oshirish.
- Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi paremlar strukturasini tadqiq qilish.
- Yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi paremlarning o'xshash va no'xshash jihatlarini ko'rsatish.
- Paremlarni ta'lim muassasalarida o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar berish.

Tadqiqot obyekti ingliz, o'zbek va rus tillaridagi yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqol va matallar tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti. Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqol va matallarni struktural-semantik va sintaktik jihatdan tahlil qilish mazkur tadqiqotning predmetini belgilaydi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

1. Maqollar ham folklorshunoslikda, ham tilshunoslikda o'rganiluvchi paremiologiya sohasining asosiy qatlami bo'lib, u o'z semantikasida madaniyatning bir bo'lagini aks ettiruvchi til birligi-lingvokulturema va axborotni saqlovchi, uzatuvchi va qayta ishlovchi kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

2. Ingliz, o'zbek va rus maqol va matallarida milliy mentalitetni ifodalovchi, ayrimlari ingliz va o'zbek tillarida o'zining farqli jihatlarini ko'rsatadi. Ya'ni xalq maqollari ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi.

3. Yuqorida aytib o'tilgan tillardagi maqollarda o'sha xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi.

4. Barcha keltirilgan tildagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi.

5. Har qanday til maqollarini o'zbek tiliga yoki o'zbek maqollarini boshqa tillarga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Ishda asosiy manba sifatida K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning "Proverbs. Maqollar. Пословицы" kitobidan foydalanilgan. Unda ingliz, o'zbek va rus tillaridagi 6000 ga yaqin maqollarning ekvivalentlari keltirib o'tilgan bo'lib, ishda aynan shu manbadan olingan o'zbek, ingliz va rus tillaridagi eng faol mavzudagi maqollarning struktural – semantik va sintaktik tahlillari qilindi. Bundan tashqari

o'zbek tilshunos olimlaridan To'ra Mirzayev, Asqar Musaqulov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek xalq maqollari" ning oxirgi nashridan o'zbek xalq maqollari keltirildi. Fransuz va shvet tilshunosi R. Honek, rus tilshunosi V.V.Vinogradov, B.A.Larrin va A.V.Kuninning ishlaridan, shuning bilan bir qatorda maqol va iboralar to'plamlaridan foydalanildi. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" kabi manbalardan o'zbek xalq maqollarining nazariy asoslari keltirib o'tildi. Ushbu manbalardan foydalanilgan holda, maqollarning struktural – semantik va sintaktik tabiati, ularning paydo bo'lish manbalari va shakllanish xususiyatlari atroflicha ochib berilgan. Ingliz olimlarining maqollarga doir yaratilgan eng mukammal kitoblari to'liq o'rganilib chiqilgan holda, asosan, R.Honekning "A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom." asaridan ingliz maqollarining nazariy asoslari, professor Mayderning "Proverbs: A Handbook" kitobidan ingliz va rus maqollari tahlillaridan foydalanildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishida transformatsion, distributiv, o'zaro zidlash, sintez, tasniflash, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasi umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi nazariya hamda metodlarga asoslandi. Tadqiqot natijalari umumiy tilshunoslik, kognitiv bilish jarayonida tilning o'rne va ahamiyati kabi muammolarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Tadqiqot uchun to'plangan til materiallari va ularning tahlilidanti shunoslikka kirish, umumiy tilshunoslik, leksikologiya, stilistika, qiyosiy tipologiya kabi fanlardan o'tiladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Shuningdek tadqiqot natijalari mazkur mavzu bo'yicha ilmiy izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, magistrlar, bitiruv malakaviy ish yozayotgan talabalar uchun manbaa sifatida qo'llanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan izohlanadi. Mazkur dissertatsiya ishida ingliz, rus va o'zbek tilidagi yaxshilik va yomonlikning qiyosiy

tahlili amalga oshirildi. Ular semantik, struktur jihatdan bir - biriga qiyoslandi, hamda farqli va o'xshash tomonlari ko'rsatildi.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya 74 betdan iborat bo'lib, kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ishning dolzarbligi, metodologik asosi va tadqiq usullari, muammoning o'rganilish darajasi, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, tadqiqot manbalari shuningdek, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati haqida ma'lumot berildi.

Birinchi bob "**Paremiologiya lingvistik tadqiqot obyekti sifatida**" deb nomlanib, unda paremalarning folklorshunoslikda tutgan o'rni, ahamiyati, o'rganilishi kabi tomonlari yoritildi.

Ikkinchi bob "**Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi paremlarning semantik tahlili**" deb nomlanib, bu bobda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqol va matallari semantik tahlil qilingan.

Uchinchi bob "**Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi paremlarning strukturaviy tahlili va lingvodidaktik masalalari**" deb nomlanadi. Unda o'zbek tilidagi yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqollarining ko'p qo'llaniladigan struktur modellari keltirildi. Mazkur bobning bir qismida metodik tavsiyalar hamda maqollarni darsda qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

BIRINCHI BOB

PAREMIOLOGIYA LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

1.1. Paremiologiya tushunchasi va u haqida ma'lumot

Hozirgi kunda yosh avlodning tarbiyasi barcha narsadan ustunligini hisobga olgan holda, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis XIV sessiyasida so'zlagan nutqida qayd etganidek, ularning qalbi va ongiga, kundalik turmush tarziga "Ota-bobolarimizdan qolgan bebaho me'ros, milliy urf-odat va an'analar "ning mazmun – mohiyatini tushuntirish va singdira borishdan iboratdir.

Tabiiyki, bu jarayonda xalqimizning ma'naviy an'alariga, hikmatli so'z, matal, ibora va maqollarning insonparvarlik mohiyatiga e'tibor qaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlar va ularning eng ilg'or qatlami bo'lgan talaba yoshlarni yuksak ma'naviyat va ma'rifat sohibi qilib tarbiyalashda ming yillar davomida saqlanib kelinayotgan xalq maqollari, matallar va hikmatli so'zlarning o'rni kattadir. Sababi yosh avlod kelajakda O'zbekistonni har qanday jabhada dunyoga tanitishi va o'zining har tomonlama olgan bilim, ko'nikma va malakalarini dunyo miqyosiga olib chiqishi kerak.

Buning uchun xalq og'zaki ijodi tushunchasini yetarlicha anglab olish lozim bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi– xalqning xalq bo'lib shakllanish va rivojlanish davridan bugungacha bosib o'tgan yo'li, hayot tajribalari, quvonch-shodliklari, mehnat-mashaqqatlari, shuningdek, xalqning donoligi, aql-zakovatini ko'rsatuvchi o'ziga xos bir madaniyat ko'zgusidir. Ular har bir xalqning qon-qoniga singib ketgan, hayot tarziga aylangan boy ma'naviy merosi, o'lmas qadriyatlari hisoblanadi. Shu o'lmas qadriyatlardan biri *paremialar* ya'ni, maqol, matal va ibratli so'zlardir.

Paremia (yunon. Paroimia – naql, rivoyat) – dunyoning barcha tillariga xos umumiy hodisadir.[7;152]. Tilshunoslik, folkloristika va boshqa turdosh fanlarda erishilgan muvaffaqiyatlar XX asrning 30-yillarida va XXI asrning boshlarida maqol va iboralar tadqiqi bilan shugʻullanuvchi maxsus fan –hozirgizamon paremiologiyasining gurkirab rivojlanishiga olib keldi.

Bir millatni millat, xalqni xalq boʻlishi uchun, uning keyinchalik bardavomiyligini taʼminlash uchun xalq asrlar mobaynida toʻplagan hayotiy tajribasini, tushunchalarini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga putur yetkazmay meʼros qilib qoldiradi. Maqollar, hikmatli soʻz va matallar ana shunday bebaho merosning boy namunasi hisoblanadi. Ular zamonlar osha, xalq donishmandligini muhim manbai sifatida ogʻizdan – ogʻizga oʻtib, yillar davomida sayqallanib kelgan. Ana shunday –boy maʼnaviy, madaniy intellektual mulklarga matallar, hikmatli soʻz va maqollar kiradi.

Darhaqiqat, oʻzbek xalqining qon – qoniga singib ketgan hikmatlar, maqollar va matallar ham asrlar mobaynida xalq bilan birga yashaydi. Ayniqsa, oʻzbek xalq maqollarida uchraydigan insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxoʻrlik, toʻgʻri va egrilik, yaxshilik va yomonlik, adolat, insof va insofsizlik, doʻstlik va dushmanlik, botirlik va qoʻrqoqlik, ilmlilik va ilmsizlik, xushyorlik va ehtiyotsizlik kabi gʻoyalar nafaqat oʻtmish avlodlarimizni, balki kelajak avlod yoshlarimizning tarbiyasida muhim roʻl oʻynaydi.

Oʻzbek xalq maqollar, matallarida gʻoyalar oʻziga xos tarzda oʻz aksini topgan boʻlib, ular oʻrtasidagi dialektik munosabatdan kelib chiqib, yosh avlodni maʼnaviy barkamol qilib tarbiyalashga doimiy eʼtibor qaratilgan. Shuningdek, hikmatli soʻzlarda ham kelajak avlodni ilmlilik va birlikka, odob va axloqqa, taʼlim va tarbiyaga, xayrli ishlar qilishga undovchi daʼvatlar oʻz aksini topgan.

Maqol, matal, hikmatli soʻz kabi noyob maʼnaviy, madaniy merosdan yosh avlodni tarbiya qilish targʻibotida unumli va taʼsirli foydalanish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir.

Xalq og'zaki ijodi janrlari sirasida hajmi, tashqi shakliy xossalari hamda voqelikni aks ettirish tarzi jihatidan maqollarga yaqin turuvchi matal, topishmoq kabi janrlar mavjud bo'lib, bu janrlar orasidagi o'xshash jihatlarning ko'pligi tufayli, ular orasidagi farqlarni anglash biroz muammo tug'dirishi mumkin.[54;92] Bugungi kunda barcha xalqlarning folklorida bu muammolarga duch kelishimiz mumkin. Xuddi o'zbek tilidagi singari ingliz tilidagi maqollarda ham shu masalaga duch kelamiz. Ya'ni, ingliz tilida maqol "proverb", matal "saying", va topishmoq "riddle" lar bir – biriga yaqin xalq og'zaki janrlari hisoblanadi. O'zbek xalq maqollar singari ingliz xalq maqollari ham matal va topishmoqlardan quyidagi xususiyatlar orqali keskin farqlanib turadi.

Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal tushunchasini bir-biri bilan chalkashtirish mavjud. Hatto, «O'zbekiston Qomusi»da ham, bizningcha, «maqol» maqolasiga matal, «matal» maqolasiga maqol misol sifatida keltirilgan. Aytib o'tish lozimki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matal o'rtasida farq borligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan so'ng, hikmatli so'z, maqol, matallarning o'zi nima? Ular qanday lug'aviy ma'nolarni anglatadi degan savol tug'iladi?

Shunday ekan, biz ushbu bobning birinchi qismida maqol, matal, hikmatli so'z haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Maqollar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari singari, har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy, madaniy xususiyatlari va uning qirralarini dunyoqarashi, axloqiy me'yor va prinsiplarini, an'ana va qadiryatlarini, millatning ruhiy holatini to'liq ifodalaydi hamda jamiyatning, ayniqsa, ertangi kun egasi bo'lgan yoshlar ongini o'stirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Dunyoda tarkibida maqollar bo'lmagan birorta ham til yo'q. Ayniqsa, o'zbek xalqining har bir gapining tarkibida yo maqol, yo ibratli so'z yoki hech bo'lmaganda bitta ibora mavjud bo'ladi.

Maqollar haqida berilgan ta'riflarda insonda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan ko'plab insoniylik xususiyatlarini ko'rish mumkin.

”Maqollar - deyiladi “O’zbek tilining izohli lug’atida“, - hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand - nasihat mazmuniga ega bo’lgan ixcham obrazli va hikmatli ibora, gap “[13;106] hisoblanadi.

Undan tashqari maqollar xalqning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan teran fikrlarning aniq va ixcham ifodasi sifatida chuqur mazmunga ega bo’lgan alohida janr hisoblanadi. Shuningdek, xalqimizning donoligi, donishmandligi ham maqollarda yaqqol ko’zga tashlanib turadi. Dono fikrni, teran mazmunni, o’tkir haqiqatni o’zida mujassam etgan maqollar his – hayajon bilan aytilib, kishini beixtiyor fikrlashga, mulohaza yuritishga da’vat etadi. Ular har bir inson hayotida bebaho ahamiyatga ega. Shu o’rinda, buyuk tarixchi Geradotning quyidagi so’zlarini esga olmoq lozim: “Qadimdan odamlarning dono va bag’oyat go’zal hikmatli so’zlari mavjud. Shunday ekan, biz ularni o’rganmog’imiz darkor “.

Kaykovusning “Agar aqlli bo’lishni istasang hikmat o’rgan, aql hikmat bilan kamol topadi “degan fikrlari yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Shuning uchun ham maqollarni “Hayot qomusi” desak bo’ladi. Ularda xalqning dono, purhikmat ifodalari, yirik madaniyat arboblari, olimlar, davlat arboblarning ibratomuz gaplari, xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarini ixcham shaklda ifodalanadi. ”Maqol“so’zi arabcha bo’lib, “so’z “demakdir. Maqollarda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo’nda va albatta, hukm tarzidagi ibratli fikr bo’ladi“ [5;117].

Ingliz tilida maqol atamasi asosan “proverb” so’zi orqali ifodalanadi. Ba’zan ko’plab adabiyotlarda: adages, dictums, maxims, mottoes, precepts, saws, truisms so’zlari orqali ham maqol tushunchasini berishimiz mumkin. O’zbek xalq maqollari singari ingliz xalq maqollari ham ingliz folklorining eng keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ko’pincha tuzilishi, folklorda o’rganilishi va yana boshqa jihatlari bilan o’zbek maqollariga o’xshash holda umumiy jihatlarni ko’rsatadi.

A.M.Gorkiy xalq maqollarining roliga yuksak baho bergan edi. «Eng ulug’ donolik so’zining soddaligidir», -deb yozadi u. Maqollar va qo’shiqlar har vaqt qisqa bo’ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo’ladi. [16; 114]. Bu yerda olim maqol va qo’shiqlarning shakliy

ko'rinishlariga, sarmazmunligiga baho berib, ularni o'zaro tenglashtiryapti. Lekin biz bu bilan qo'shiq va maqol xuddi bir xil xususiyatga ega janr deb hisoblamasligimiz kerak.

Nafaqat maqollar yosh avlodning dunyo qarashini oshiradi, shuningdek, maqollar bilan bir qatorda, buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan *hikmatli so'zlar* ham ularning tafakkurini boyitishda muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Hikmatli so'zning lug'aviy ma'nosi – chuqur ma'noga ega bo'lgan oqilona aytilgan gap demakdir.

Hikmatli so'z–buyuk shaxslar tomonidan xalqning turmushi, hayotiy tajribalarga asoslanib yaratilgan, aksariyati odob –axloq masalasiga qaratilgan jumladir.

“Rus tili ensiklopediya” lug'atida bu atamaga shunday ta'rif beriladi: *“Voqelikdagi biror bir hodisasi haqidagi umumlashgan va tugallangan fikrni ixcham tarzda aks ettiruvchi turg'un ibora (naql) deyiladi.*[32;24].

Mustaqillikka olib chiqqan Birinchi Yurtboshimiz I.A.Karimov shunday deya ta'kidlagan edilar: “Odamzot bor ekan, millat bor ekan, shu millatni ifoda qiladigan, asrlar mobaynida qandaydir muqaddas darajaga ko'tarilib qolgan alomat xususiyatlar ham u bilan birga yashaydi”[2;75].

Birinchi Yurtboshimizning fikrlariga qo'shimcha ravishda Abdulla Qodiriyning xalq hikmatlari –“Turmush onasining dard chekib tuqqan to'ng'ich o'g'li“ degan fikrini ham keltirishimiz mumkin. Xalq ijodiyotining o'ziga xos bu janri turli xil nomlanadi.Jumladan *hikmatli so'z, maqol, matal, naql, donishmandlar* so'zi kabi atamalardan iborat. Hikmatli so'z- bu Qur'oni karim oyatlarida payg'ambarimizning haq yo'lini ko'rsatuvchi va'zlari ma'nosida qo'llanilgan.Lug'atlarda esa uning ilm va adolat birligini o'zda tutuvchi – haqiqatlarning ma'rifati; odat va axloqqa oid maxsus so'z; insonning haqiqatni bilib xayirli ishlar qilmog'i, sirli va yashirin sabab narsaning ich va tashqi holidan bahs etuvchi ilm, aql va harakatdagi uyg'unlik, Tangri haqiqatini ifoda etgan diniy-tasavvufiy xos so'z tarzida ta'riflar berishgan. Qisqacha qilib aytganda, hikmat

“diniy - tasavvufiy yo’nalishga ega ma’nodor so’z “dir.[3;99]. Hikmatlar X asrdan buyon tasavvufga doir kitoblarda ishlatilib kelingan.

Shuningdek, hikmatli so’z, ya’ni aforizmlar grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib, ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so’zlar deyiladi. Turkiy til dahosi bo’lmish Alisher Navoiyning quyidagi misrasini hikmatli so’zga misol qilishimiz mumkin. [67;68]

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami.

Hikmatli so’zlar barqarorlik, mazmunilik yaxlitlik, takroriylik, ya’ni nutqda doim bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish belgilariga ko’ra, boshqa barqaror birliklar bilan umumiylik kasb etsa ham, aniq muallifning borligi bilan ulardan farq qiladi. Hikmatli so’zlarni o’rganib, xotirada saqlab, nutqda o’rinli qo’llay bilish kishining so’z san’atkori, donishmand bo’lishini ta’minlaydi.

Ajdodlarimizdan bizga me’ros qilib qoldirilgan hikmatli satrlar sarchashmasi yoshlarning ma’naviy tafakkuri, dunyoqarashini boyitishda beqiyos o’rin tutadi. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to’playdi va turli vositalar yordamida shu tajribani kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Maqollar va hikmatlar ana shunday ma’naviy me’ros hisoblanadi. Dunyoda hikmat durdonalarini yaratmagan, ularni ko’z qorachig’iday asrab avaylab, tilida, dilida saqlab kelmayotgan birorta ham xalq yo’q. Xalqimizda ham bunday durdonalar ko’plab uchraydi. Jahon madaniyati ravnaqiga beqiyos hissa qo’shgan Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ko’plab olim va mutafakkirlarni yetishtirib bergan xalqimiz madaniyati donishmandligi dunyo jamoatchiligi tomonidan e’tirof etib kelinadi. Qolaversa, Birinchi Prezidentimizning ham vatan, xalq osoyishtaligiga bag’ishlangan quyidagi hikmatlarini bebaho durdonalar safiga kiritishimiz mumkin.

Dehqoni bor yurt qudratli bo'lur ,

Qudratli yurtning dehqoni boy bo'lur.

Bunday hikmatlarning har birining zamirida juda katta ma'no yotadi.

Xalq ijodiyotining yana bir janri - bu ko'chma ma'noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turi bo'lgan matallardir.

Matal o'z ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirilgan so'z birikmalaridan iborat bo'ladi, unda o'xshatish, kinoya, qochirma so'z va boshqa til vositalari qo'llaniladi. Bunda majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ko'chirilgan ma'nosi o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'ladi. Maqollar tugal fikr ifoda etadi, matallarda esa bunday xususiyat bo'lmaydi. Shuning uchun ular, odatda, alohida qo'llanilmaydi.

“*Matallar*-

muayyan hayotiy hodisaning aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda, iboradir.

Matallarda o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so'z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi.

Majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ko'chma ma'nosi o'rtasida aniqlik, mantiqiy bog'lanish bo'lish ilozim. Matallar bir yoki bir nechta jumladan tuziladi,

ular orasida qo'fiyalanish hamisha saqlanmaydi “[70;56] Masalan,

“Shamol bo'lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas“, “Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit“.

Matallar tugal ma'no kashfetmagan bilan, grammatik jihatdan gapholida shakllangan bo'ladi hamda to'g'ri ma'noda qo'llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar hisoblanadi.

Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.

Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

Demak shundan xulosa qilib aytish mumkinki, maqol alohida qo'llanganda tugal fikrni bildiradi va hayotda uchrab turadigan o'xshash lavhani izohlaydi. Matal alohida qo'llanganda, mustaqil ma'no ifodalamaydi va notiq fikrining badiiyligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu o'rinda bir misolni eslash maqsadga muvofiqdir. Xalqimiz orasida «Yaxshi so'z bilan ilon inidan, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar» degan maqol bor. Agar shu maqoldagi fikriy qismlarni ajratgan holda quyidagi shaklga keltirsak, matalga ega bo'lamiz: «Ahmad ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi», bu gapda «ilon inidan chiqadigan» so'z birikmasi alohida qo'llanganda mustaqil ma'no anglatmaydi. Ma'lum bo'ladiki maqol va matal, aslini olganda, xalq hayotida tutgan o'rni, maishiy vaziyatlarini ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar ekan. Faqat tarixiy jarayon natijasida ularning biri maqol bo'lib shakllangan, ikkinchisi matal sifatida yashay boshlagan[70;35]. Shunday qilib, maqol va matal aslini olganda, xalq hayotida tutgan o'rni, maishiy vaziyatlarni ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar va ularning biri tarixan maqol bo'lib shakllanishga ulgurgan, ikkinchisi esa matal sifatida yashayvergan. Demak, maqol va matallar bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin turadi, ammo maqollar nisbatan mustaqil janr, matalda bu mustaqillik ko'zga tashlanmaydi. Lekin har bir holatda ham maqol, hikmatli so'z va matal tushunchasi har qanday holatda ham hayotiy tajribalar orqali kelib chiqadi va asrlar osha sayqallanib, o'zining ma'nodorlik kuchini topadi.

1.2. Paremalarning folklorshunoslikda o'rganilishi

O'zbek xalq maqollarining o'zbek folklorida o'rganilish tarixi uzoq tarixga borib taqalish bilan bir qatorda, qiziqarli hamdir. Hozirgi kunga kelib, maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda ularning o'rganilish tarixiga qiziqmay ilojimiz yo'q. Maqollar bugungi kunga qadar barcha xalqlarning folklorchilari tomonidan yuksak istak bilan o'rganilgan va bugungi kunda ham bu jarayon ustida chuqur izlanishlar olib borilmoqda. O'zbek maqollari haqida yangiliklar qilish, ularning hali o'rganilmagan sohalarini qidirish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Ingliz xalq maqollari ham xuddi o'zbek xalq maqollari singari g'oyat mukammal va xalq o'gzaki ijodining eng sara namunalaridan biri hisoblanadi. Ishimizning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda, xalq maqollarini tilshunoslikda o'rganilish tarixi juda muhim.

Bugungi kunda folklorida, ayniqsa, maqollar ustida izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar uchun turli xalq maqollarining shu kungacha o'rganilish tarixini chuqur bilish ishimizning poydevorini tashkil qiladi. Shu sababdan ishimizning ushbu qismida xalq maqollarining folklorida o'rganilish tarixi va bugungi kundagi izlanishlar haqida to'xtalmoqchimiz. Dastlabki ishni o'zbek folklorshunosligidagi qarashlar bilan boshlasak.

XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning «Devonu lug'otit-turk» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning

aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda.[51;365]

Bugungi kunimizdan deyarli ming yil avval Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit-turk» asarida ko'plab maqollardan namunalar keltirgan va xalqimiz ijodida maqol janrining uzoq tarixga ega ekanligini isbotlab bergan.O'zbek maqollarining o'rganilish tarixi haqida so'z ochar ekanmiz, shubhasiz Mahmud Koshg'ariyning xizmatlarini alohida e'tirof etish joizdir. Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit-turk» asarida kitobni«hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar» bilan bezaganligini aytadi.[37; 303]

Yana bir tarixiy boyligimizga misol qilib Mahmud Koshg'ariyning turkiy so'zlarning lug'ati misolini keltirsak, unda 400 ga yaqin maqol va 13 mingdan ortiq bu janr namunalarini ko'rsatish mumkin.

Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit-turk» da «savlashmoq» so'zini keltirib o'tgan. [4;152] Bu so'z “otalar so'zini eslamok” ma'nosini anglatishi aytiladi. Shunday tahmin qilish mumkinki, bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni «sav» deb ataganlar. Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi «masal» tarzida berilgan. [43;207] Navoiy o'z asarlarining birida «masaldurkim — uyqu o'limdir» deb aytadi. «Masal» atamasining XX asr boshlarigacha qo'llanib kelingani ma'lum. O'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol so'zi ko'p uchray boshladi.Keyinchalik XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qo'llanildi.[45;508]

Barcha zamonning mohir so'z san'atkorlari maqol uchun katta e'tibor qaratganlar. Chunki badiiy yoki she'riy asarda maqollardan foydalanish hamisha asar tilini boyitib bergan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, Abulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda ishlatilganini ko'rishimiz mumkin.Jumladan:

- Alisher Navoiy lirikasida «Chiqmag ‘on jong‘a umid», «It uyub qoldiyu, ko‘chdi karvon»;
- Bobur ijodida: «Bo‘lib turur ikki ko‘zim yo‘lida to‘rt», «Men edim saningdek, sen bo‘lg‘oysen maningdek»;
- Abdulla Qahhor ijodida «Otning o‘limi, itning bayrami», «Quruq qoshiq og‘iz yirtar»;
- «Alpomish» dostonida «Sulton suyagini xo‘rlamas», «Elakka brogan xotinning ellik og‘iz gapi bor» kabi maqollar ko‘plab uchraydi. [26;210]

Shuni eslatib o‘tishni joiz deb topdik: Folklorshunoslikda badiiy asarda maqollardan foydalanish **folklorizm** deb nomlanadi.

Vaqlar keldiki, asrlar davomida yaratilib, sayqallangan maqollar, matallardan bir butun namuna yaratilishga muhtojlik sezildi. Bu ish yaqin yillarda emas, balki, uzoq asrlar oldin qilingan bo‘lmaganida biz yoritmoqchi bo‘lgan mavzu asossiz bo‘lar edi.

Olimlarning fikridan kelib chiqib shuni tushunish mumkinki, qadimgi shohlardan Abbos Safaviyning amri bilan maqol va matallarimiz bir joyga jamlangan. Afsuski, bu majmua bugungi kungacha yetib kelmagan. Yana shuni ham ta’kidlash o‘rinliki, adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjud bo‘lib, ularning yorqin namoyandasi sifatida Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarini keltirib o‘tamiz. Uning tarkibida 300 dan ortiq o‘zbek xalq maqollari bor. Yoki yana bir adabiy boyliklardan biri Sulaymonqul Rojiyning «Zarbulmasal» asari, unda yozuvchi 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir [66;92].

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, o‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari boshlangan. Venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig‘atoy tili darsligi» xrestomatiya-lug‘atiga 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan. Shundan keyin N.Ostroumov (1895), B.Rahmonov (1924), Sh.Jo‘rayev (1926), H.Zarifov (1939,1947), B.Karimov (1939), Sh.Rizayev, O‘.Azimov, O‘.Xolmatov (1941), M.Afzalov,

S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958,1960,1965,1978), R.Jumaniyozov (1964,1967,1970), E. Siddiqov (1976,1986), B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, A.Musoqulov, R.Zarifov (1978), B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, M.Madrahimova(1981,1984), Sh. Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov (1987,1990,2001), T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi [60;407].

Buning natijasida bugungi kunda ko'plab ilmiy ishlarga asos sifatida ishlatilayotgan to'plamlar yaratildi desak ham yanglishmaymiz.

Tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishidagi M.Abdurahimov, X.Abdurahmonov, M.Sodiqova, H.Karomatov, K.Karomatova, H.Berdiyorov, R.Rasulov kabi olimlarning to'plamlari shular qatorida yuzaga keldi. Shuningdek, Y.Chernyavskiy, V.Ro'zimatov (1959), N.Gatsunayev (1983, 1988), A.Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida nashrdan chiqdi. Ayniqsa, H.Karomatov, K.Karomatova muallifligida nashrdan chiqqan o'zbek, ingliz va rus maqollarining to'plami maqollarni qiyosiy jihatdan o'rganayotgan olimlar uchun juda katta poydevor-yangilik bo'ldi. "Proverbs, Maqollar, Пословицы" deb nomlangan ushbu kitobda o'zbek, rus, ingliz maqollarining muqobil ekvivalentlari va o'zbekcha ma'nolari bilan keltirilgan. Biz ham ishimizning keyingi boblarida yuqoridagi kitoblardan foydalanilgan holda jadvallar berib boramiz.

Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G'ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqllov, R.Zarifov kabi olimlar o'tgan asrda «O'zbekcha otalar so'zi» (1924), «Maqollar va hikmatli so'zlar» (1939), «Otalar so'zi — aqlning ko'zi» (1947), «O'zbek xalq maqollari» (1978), «O'zbek xalq maqollari» (2jildlik, 1987— 1988) kabi o'nlab maqollar to'plamini e'lon qilishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.[73;123]

Yuqorida nomlari keltirilgan to'plamlardagi materiallar bir-birini takrorlashiga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi, mavzularga ajratilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, M. Afzalov boshchiligida tayyorlangan to'plam oldingi nashrida 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga bo'lib berilgan bo'lsa, R. Jumaniyozov to'plamining so'nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzu ostida jamlangan. Yoki B. Rahmonov to'plamiga 564, Sh. Jo'rayev to'plamiga 711 maqol kiritilgan. O'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987—1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan bu to'plam o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi.[55;205] Keyinchalik To'ra Mirzayev, Asqar Musoqulov va Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 2005- yilda ilgari to'plamlarga nisbatan ancha mukammalroq shaklda ishlab chiqildi. Kitobda 70 dan ziyod mavzudagi maqollar alfavit tartibi bo'yicha tuzib chiqilgan.

O'zbek xalqining naqadar ulkan va bebaho madaniy merosga ega ekanligini 80-yillarning oxirlarida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mingga yaqin maqollar alifbo bo'yicha tartiblashtirilgan holda nashr etilgan namunasida ko'rish mumkin. Bunday ulkan xazinaga dunyodagi kamdan-kam xalqlar ega bo'lishi mumkin. Bir yangilikni yaratish uchun unchalik katta vaqt kerakmasdir, ammo bitta maqolning badiiy jihatdan mukammal tarzda shakllanishi va xalq qalbidan joy olishi uchun o'nlab yoki yuzlab yillar kerak bo'ladi.

Endi ingliz xalq maqollarining kelib chiqishiga razm salsak: Odatda tili va madaniyati bir xil bo'lgan millatlarning maqollari ham bir-biriga yaqin bo'ladi. Ingliz va butun G'arbiy Yevropa davlatlarining xalq o'g'zaki ijodi va aynan maqollarning tarqalishida, maqollar kitobi deb atalmish ingliz xalq maqollarini o'zida jamlagan "Bible", ya'ni Biblyaning o'rnini katta. O'zi maqol tushunchasiga ingliz olimlari qanday qaraydi? - degan savol paydo bo'ladi.

Ko'plab ingliz olimlari tomonidan maqolga quyidagicha izohlar keltiriladi. Mashhur ingliz folklorshunosi, professor *Mayder* maqolni quyidagicha izohlaydi: "Proverbs are used in a wide range of situations and no limits to the use of the

proverb. They can be used to: “strengthen our arguments, express certain generalizations, influence or manipulate other people, rationalize our own shortcomings, question certain behavioral patterns, satirize social ills, poke fun at ridiculous situations”. [54;265]

Maqollarni o'rganishda hamisha bahslashishlar ko'p bo'lgan va maqollar uchun yagona bir izoh berishning iloji yo'qligini ta'kidlaydi Musavi. Shu bilan bir qatorda u olimlar tomonidan maqol haqida aytilgan barcha ta'riflar va izohlar to'g'ri ekanligiga qo'shiladi.

Maqollar “stick in the mind”, “build up vocabulary”, “illustrate admirably the phraseology and idiomatic expressions of the foreign tongue”, “contribute gradually to a surer feeling for the foreign tongue” and proverbs “consume very little time”. [59;203] degan ta'rif bo'lsa Roulandga tegishlidir.

“ Proverbs are not only melodic and witty, possessed with rhythm and imagery; proverbs also reflect “patterns of thought”. Ya'ni maqollar ixcham va ritmik tuzilgan bo'lib, nafaqat donolikni ifodalab qolmay, balki inson o'y fikrlarining aksidir, degan fikrni ilgari suradi Jozef Reymond.

“The Perception of Proverbiality” asarida maqollar qadim xalq tilidan yetib kelgan va xalqning an'anaviy urf-odatlarini avlodlarga ko'rsatuvchi timsol sifatida keltiriladi. Shirli L.Arora ko'plab olimlar fikriga qo'shilgan holda Taylor va Seytellarning maqollar haqidagi qarashlarini o'z asarida keltirib o'tadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, maqollar xalqning donoligini ifodalovchi va hamisha avlodlarga meros qoluvchi janrdir. Maqollarning mualliflari bo'lmaganidek, ularning paydo bo'lish vaqti ham aniq emas.

Ikki xalq vakillari ham maqollarga deyarli o'xshash ta'rif bergan bo'lishiga qaramay, ular nashr etgan maqollar to'plami turli ko'rinishdaligini hisobga olgan holda, tartib shaklini izohlab o'tamiz.

O'zbek folklorshunos olimlari tomonidan maqollarni tasnif qilishning hozirgacha, asosan quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. *Alifbe tartibida.*

- Mavjud materiallar (maqollar) alfavit tartibiga solinadi.
- Afzalligi – foydalanuvchi to'plamdan maqolni tezroq topadi.
- Kamchiligi – maqollar mavzulashtirilmagan.

2. *Mavzular tartibida.* (Bu tur oldingisidan ancha murakkab va mukammal)

•Material muayyan mavzu guruhlariga ajratilgan va o'z ichida alfavit tartibi bo'yicha beriladi.

- Afzalligi – xalq maqollari fondining mavzu doirasini ko'rsatib beradi.
- Kamchiligi – ko'rilmagan.

3. *To'g'ri yoki ko'chma ma'no tashishiga ko'ra.*

Bunga ko'ra maqollar 3 xil: a) o'z ma'nosida qo'llanuvchi;

b) o'z va ko'chma ma'noda qo'llaniluvchi;

e) faqat ko'chma ma'noda qo'llaniluvchi.

- Afzalligi – maqol qay holatda qay ma'noda kelishi izohlanilgan
- Kamchiligi – tez-tez yangilanib turilishi lozim.

4. *Qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga-xronologiyasiga ko'ra.*

- Qadimiy va ayni bir vaqtda zamonaviy maqollar ham keltiriladi.
- Afzalligi – muayyan vaqtda muayyan holatga mosligi.
- Kamchiligi – ko'rilmagan.

5. *Tuzilishiga ko'ra.*

• Bunday tasnifda maqollar tarkibidagi mantiqiy markazlar miqdoriga qarab bir nechta guruhlariga ajratiladi. 1. 1 komponentli; 2. 2komponentli; 3. 4 komponentli va undan ortiq.

- Afzalligi - O'zbek maqollari ilk bora shunday ko'rinishda tasnif qilingan.
- Kamchiligi - Hozirda maqollarning yana bir tasnif turi sinonimlik yoki antonimlik kiritilmagan.

Ammo hozirda o'zbek maqolshunosligida alifbe tartibi va mavzusiga ko'ra tasnif qilish ananasiga ikki jildlik "O'zbek xalq maqollari" (1987) va ko'p jildlik «O'zbek xalq ijodi» ruknida «O'zbek xalq maqollari» (1989) va «O'zbek xalq maqollari» (2003) 31 hamda etimologiyasiga ko'ra Sh.Shomaqsudov va

Sh.Shorahmedovlarning «Hikmatnoma» (1990) va “Ma`nolar xazinası” (2003) “O`zbek xalq maqollari” (2005) to`plamlarini tuzishda amal qilingan xolos.

Ingliz olimlari tomonidan ham maqollar borasida bir qancha ishlar qilingan bo`lib,shu bo`yicha ko`plab izlanishlar olib borgan olimlardan biri sifatida Norrikni aytib o`tishimiz mumkin. Uning maqollar bo`yicha qilgan eng sara ishlaridan biri turli xil olimlarning fikrlarini to`plab,qiyoslab,aniqroq xulosalarga kelganidir. U maqollarning o`ziga xos xususiyatlari haqida to`xtalar ekan, ular haqida aniqroq tushunchalarga kelish kerakligini aytib o`tadi. Bular quyidagicha:

1. Proverbs are self-contained (Maqollar tayyor strukturli gaplar). Seyler maqollardagi mustaqil va o`ziga xos tuzilishni ta`kidlab o`tadi. Uning fikricha maqollar grammatik jihatdan o`zgarmas strukturaga ega bo`lib, maqollardagi so`zlarning o`rnini almashtirib bo`lmaydi. Norik bu fikrlarga qo`shilgan holda shunday deydi: "Seiler introduces this definitional criterion solely to distinguish proverbs from proverbial phrases". [54;265]

2. Demak, Norik Seylarning fikrini ma`qullagan holda shu qarorga keladiki, maqollar grammatik jihatdan qattiq strukturaga ega bo`lib, ularda ishlatilgan iboralar bunga misol bo`la oladi. Chunki maqollarda ko`pincha iboralar ishlatilishi ham ulardagi ma`lum qolip shakllanganini ko`rsatadi va ibora bilan maqol o`rtasidagi farqlarni ham aytib o`tadi.

3. Proverbs are (propositional) statement (Maqollar axborotlardir). Norik maqollar mavjud voqea yoki hodisaning axborotchisi deydi.

4. Proverbs are (grammatical) sentences (Maqollar grammatik gaplardir). Maqollar grammatik strukturaga ega gaplar ekanligini ham o`rganish ingliz olimlari e`tiboridan chetda qolmagan. Teylorning fikricha maqollar xuddi gaplardek tugal bo`lishi shart. Bundan tashqari Abrahams, Honek va Mayderlar ham ushbu fikrlarni qo`llab quvvatlaganlar. Masalan: **“Barking dogs never bite”** maqolini grammatik jihatdan tahlil qilsak,“ **Barking dogs**” ega vazifasini, **“bite”** kesim vazifasini, **“never”** ravish bo`lib kelgan. Gap hozirgi oddiy zamonda, faol nisbatda ifodalangan. Ega ko`plikdagi ot va oldidan sifat vazifasini bajarayotgan gerundiy orqali ifodalangan.

5. Proverbs are tradition (Maqollar an'anaviydir). Bu haqda Norik quyidagicha fikr bildiradi: "The traditional nature of proverbs correlates closely with their status as items of folkloric".

Trench maqollardagi 3 narsani "shortness, sense, salt" ni "ya'ni "qisqalik, hissiyot, ta'm" ni juda muhim deb hisoblaydi. Bularni quyida qisqacha keltiramiz:

1. Shortness (Qisqalik): Trenchning fikriga ko'ra, maqollardagi qisqalik eng muhim omildir. Yaxshi maqol hamisha qisqa, yurakdan aytilib, yurakka yetib borishi lozim deydi. U ba'zan ikki, uch yoki undan ortiq so'z bilan ifodalangan bo'lishi ham mumkin. Maqollar odatiga ko'ra ixcham shaklga ega, biroq olam-olam ma'no anglatishi zarur degan fikrlarni keltiradi.

2. Sense (Hissiyot): olimning ta'kidlashicha, hissiyot maqolning obrazlilikini oshirib beradi.

3. Salt (Tam): "a proverb must have salt, that is, besides its good sense it must in its manner and outward form being pointed and pungent, having a sting in it, a barb which shall not suffer it to drop lightly from the memory", [58;157]-degan fikrni keltiradi.

Maqollar borasida gap ketar ekan, ingliz folklorshunosi Honekning maqollar ustida olib borgan chuqur izlanishlarini keltirmay ilojimiz yo'q. Honek maqollarning tarixi haqida so'z yuritib, ularning jamiyatning har bir sohasida faol tarzda foydalanilishini aytadi. Uning ta'kidlashicha, maqollarni jamiyatning barcha sohasida folklorshunos olimlardan tortib to siyosatchilar, hatto huquqshunoslar ishida ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Shuning uchun ham maqollarning turli xil maqsad va vazifalari, istiqbollari, taxmin va farazlari, uslublari va nazariy xulosalari mavjudligini ta'kidlaydi.

Honek "A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom" asarida maqollarni 7 ta guruhga bo'lib ko'rsatgan:

- | | |
|-------------|----------------------|
| • Personal | • Cultural |
| • Formal | • Cognitive |
| • Literary | • Religious [53;412] |
| • Practical | |

Maqollar ustida olib borilgan ishlar turli bo'lishiga qaramay, har ikki tilda o'xshash jihatlarni ham kuzatish mumkin.

1.1- jadval

O'zbek, ingliz maqollarida badiiy vositalarning ishtiroki

Tazod	Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.	Fools never know when they are well
Metafora	Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas	Have smb.'s fate in one's hand
Mubolag'a	Nafsi buzuq hayitda o'lar	Back is spent under his belly, What is got over the devil's
Jonlantirish	O'tin ayirgan bolta maydonda qolar	Harness, Pull together in double
Alliteratsiya	Birovning o'zi g'ar, Birovning so'zi g'ar	No fool like an old fool
Ritm	Jonga kuygan jondan do'st, Jonga kuymas qanday do'st	A friend to everybody is a friend to nobody
Inversiya	Bek gapirsa, bekniki ma'qul, Xon gapirsa — xonniki	Better is a neighbor nearby than a brother far away

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar yozgan asarlar maqollarning haqiqiy nazariyalarini amaliyot orqali isbotlab ko'rsata oladi. Har ikki tilda ham maqol o'ta murakkab va juda ko'p izlanishlar olib borishga sabab bo'lgan. Ayniqsa, maqollarning nazariy jihatdan qilingan ko'plab yangiliklari bu soha ustida ish olib borayotgan tadqiqotchilarga asosiy poydevor bo'la oladi.

BIRINCHI BOB BO'YICHA XULOSA

Ingliz va o'zbek xalq maqollari, matal va hikmatli so'zlari xalq og'zaki ijodining paremiologiya bo'limida o'rganiladi va ular aniq fikr, tugal xulosa, lo'nda hukm kabi xususiyatlari bilan xalq o'g'zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlanib turadi. Ya'ni, maqol, matal va hikmatli so'zlarda muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi va o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari, ular tarkibida ibratlilik, pand-nasihati kabi jihatlar ustun turishi orqali o'zining umuminsoniy jihatlarini ko'rsatadi. Yuqoridagi bobga manbaa yig'ish davomida o'rganilayotgan tillardagi maqollarning folklorda o'rganilish tarixini qiyosiy o'rganish orqali qaysi tilda ularning tadqiq qilish darajasi mukammal yoki sayoz ekanligini ko'rib chiqdik. Maqollar, asosan, qadimdan to'plovchilik orqali yetib kelganini o'zbek tilida Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asari va ingliz tilida maqollar kitobi deb atalmish «Bible» ni keltirdik.

Keyinchalik maqollarning ichki strukturaviy tuzilishi va boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish ya'ni maqollar bo'yicha tarjimashunoslik ishlari boshlangan bo'lib, uning namoyandalari M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, G'. Salomov, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyev, R. Rasulovlardir.

Ingliz maqollarining o'ziga xos eng muhim jihatlarini fanda isbotlab, asosan, ulardagi strukturaviy tuzilish, qanday badiiy vositalarning ishlatilishi, ijtimoiy hayotdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratganlar va ularni o'z asarlarida berib o'tganlar sifatida Honek, Norik, Mayder, Teylor, Aroralarni ayta olamiz.

Agar maqollarning har ikkala tilda o'rganilish jihatlarini solishtiradigan bo'lsak, maqollarning to'plam holatiga kelishi, badiiy vositalarning ishlatilish

o'rnini o'rganish va umuminsoniy jihatlarini ko'rsatish kabi masalalar deyarli bir xil. Biroq, maqollarning nazariyalariga bag'ishlangan asarlarning ingliz tilida o'zbek tiliga nisbatan ko'pligi ingliz maqollarining nazariy jihatlarini o'zbek maqollariga nisbatan ko'proq o'rganilganligini ko'rsatadi. O'zbek tilida o'zbek olimlari tomonidan bu ishga ko'p marotaba qo'l urilgan. Asosan, o'zbek va ingliz maqollarini solishtirish uchun o'zbekcha tarjimalarini berish, muqobil variantlarini keltirish va semantik xususiyatlarini isbotlash ishlari qilingan. Xullas, o'zbek va ingliz tillarida maqollarning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganilgan. Maqollarning semantik xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Ammo o'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini bo'yicha uncha ko'p ishlar qilinmagan.

IKKINCHI BOB

TURLI TIZIMLI TILLARDA YAXSHILIK VA YOMONLIKNI IFODALOVCHI PAREMALAR TAHLILI

2.1. Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqol va matallarning semantik tahlili

Yaxshilik, ezgulik – bular yuksak ma'naviyat kategoriyalaridir. Bu gap maqollarda o'z tasdig'ini topgan, masalan: *Yaxshini ko'rmoq – jannat; Yaxshi niyat – yarim baxt; Yaxshi xislat – go'zal fazilat.*

Ko'p maqollarda yaxshilik, yomonlik bilan qarama-qarshi qo'yiladi: *Yaxshining ishi – atir, yomonning ishi – zahar; Yaxshining ishi – sano, yomonning ishi – g'avg'o; Yaxshining ishi – jannat, yomonning ishi – kasofat; Yaxshining ko'ngli – tog', baxlning ko'ngli – dog'; Yaxshi qo'shni - ota-ona, yomon qo'shni – boshiga balo.*

Ingliz tilidagi maqollar ham semantik rang baranglikka ega, tahlilga tortilgan 30dan ortiq maqollardan quyidagi asosiy semantik guruhlarni ajratib olindi:

1. Vatan, ona yurt haqidagi maqollar;
2. Yaxshilik va yomonlik haqidagi maqollar;
3. So'z, til ahamiyati haqidagi maqollar;
4. Ilm-fan haqidagi maqollar;
5. Do'st va dushmanlik haqidagi maqollar;
6. Mehnat va dehqonchilik haqidagi maqollar;
7. Boylik, kambag'allik haqidagi maqollar.

Ularni biz nafaqat tarjimasi, balki ingliz maqollarining semantik jihatdan o'zbek-rus tillaridagi muqobillarini ham taklif etamiz:

Ingliz, o'zbek va rus tilshunoslari tomonidan qayd etilganidek, ko'plab maqollar semantik jihatdan bir-biridan ko'chirilganidek bir xil obrazlar, bir xil ifodaga asoslangan. [37;39]

Ikki yoki bir necha til orasidagi o'xshashlik va tafovut qiyosiy tadqiqot natijasida aniqlanadi. V.D.Arakinning ta'kidlaganidek, qiyosiy metodning mohiyati "O'xshash vazifalarni bajaruvchi qator tillardagi hodisa va faktlarining izlab topilishi va aniqlanishidadir. Bunda qiyoslanayotgan tillarning genetik jihatdan yaqinligining ahamiyati yo'q" [7;62]

E.D.Sulaymonovning fikricha, "Qiyos ham bir tip doirasida til hodisasining tizimli tavsifiga ega bo'lish uchun, ham ushbu hodisaning boshqa tipdagi til hodisalari, ya'ni o'xshash hodisalar bilan qiyosan tavsiflash uchun amalga oshiriladi" [15;256].

Turli tizimdagi tillardagi maqollar uchun universalialar haqidagi ta'limot metodologik baza bo'lib hisoblanadi. Sababi, ular turli tillarning bir – biriga bog'lab turuvchi ko'priq vazifasini bajaradi. Shu o'rinda universalialar o'zi qanday tushuncha ekanligiga izoh kiritib o'tsak:

Universalialar (lat. Universalis – umumiy). "Til universalialari - barcha tillarga yoki ko'pchilik tillarga xos xususiyatlar"[17;66]. Universalialar *deduktiv*, ya'ni barcha tillar uchun majburiy va *induktiv*, ya'ni eng mashhur tillardagina bo'ladi.

Birinchi tip universalialarga gaplar, ikkinchisiga maqollar kiradi. Maqollar barcha hind-Yevropa, turkiy, ugorfin, semit-xomit hamda afrika va polineziya tillarida mavjud. Undan tashqari, turli oilalarga mansub tillarda semantik jihatdan bir turdan bo'lgan miqdoriy guruhni ajratish mumkin. Biz E.Sulaymonovning "til milliy muqobillaridan qat'iy nazar" "tafakkurning universal bazasi" ekanligi haqidagi fikriga to'la qo'shilamiz. Shu bois "tillarning chuqur teran tuzilishi" yagona hisoblanadi. "Turli tillarda so'zlashuvchilarning bir-

birlarini tushunishlari fakti” birinchi navbatda yagona mantiqiy-tafakkur bazasining mavjudligi bilan izohlanadi.

“Aynantillarning universal o‘xshashligi tillarni qiyoslash va ularning tasniflash uchun mantiqiy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda dunyo tillarini tasvirlash chog‘ida yuzaga keluvchi mashaqqatlarga barham berish vositasi hisoblanadi.”[9;33]

Mazkur nazariy qoida maqollarning qiyosiy tadqiqiga nisbatan ham amal qiladi. Unda til universalialarining hisobga olinishi ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarni aniqlashga ko‘mak beradi.

“Har bir xalq maqollarda o‘z tajribasini ixcham shaklda aks ettiradi, ammo ko‘pincha bu tajriba boshqa xalqlarning tajribalari bilan mos keladi. Shuning uchundir, ko‘pincha, turli tillardagi maqollar bir-biridan aynan nusxa ko‘chirilganga o‘xshab ko‘rinadi” [51;70].

Maqollarning universalligini ishonch bilan yoqlovchilar asosan, taniqli paremiologlardir. Masalan, G.L.Permyakov maqollarning bir xildagi o‘xshash vaziyatlarni ifodalagani uchun turli tillarda bo‘lsada, ularning etnik, tarixiy va tiltafovutlaridan qat’iy nazar (jumladan, turli tizimlarga tegishli bo‘lgan qardosh bo‘lmagan tillarda) bir-biriga juda yaqin turishini ta’kidlaydi.

Yana uning fikriga ko‘ra, “O‘xshash maqol va matallar, ularning til materialidan qat’iy nazar, qandaydir tipik vaziyatlarning obrazli muqobillaridir, bu tipik vaziyatlar aniq maqollarga nisbatan invariantlari hisoblanadi” [18;20].

“Turli tizimdagi tillardagi maqollar universal xossalarga, hatto yagona mantiqiy-semantik tuzilishga egadir. Bu maqollar dunyosining qandaydir bir madaniyatga tegishli emasligi, ko‘pchiligiga xos ekanligi bilan bog‘liq. Bu demak, maqolning ta’rifi madaniyatlararo xarakterga ega bo‘lishi va o‘zi qayd etilgan barcha madaniyatlarning shartlarini bajarishlari lozim.

Biz quyida o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqollarning shaklan va ma’nosi jihatidan o‘xshashlarini keltiramiz.

1. **“Shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi”**.Inglizcha maqollar orasida ham shunday shakl va mazmunga ega bo‘lgan maqol mavjud bo‘lib u:

There is no smoke without fire.

So'zma so'z tarjimasi: "Olovsiz tutun bo'lmaydi"

Ruschavariant: Огонь без дыма не бывает

O'zbekchada ushbu maqolning yana boshqacha aytilishi ham mavjud: "Olov bo'lmasa tutun bo'lmaydi" deydilar. Ko'chma ma'nodagi maqol hisoblanib, o'zbekcha ekvivalentida olov-tutunso'zlari qo'llanilgan, inglizchada ham o'zbekcha maqoldagi kabi shamol **smoke-fire** so'zi qo'llanilgan.

2. **"Yon qo'shnim- jon qo'shnim"** kabi bir xil semantik ma'noga ega bo'lgan ushbu maqollarning ekvivalenti inglizchada ham bor: **"Good fences make good neighbours"**

So'zma so'z tarjimasi "Yaxshi panjara ortida - yaxshi qo'shni bo'ladi". **Jon qo'shni** inglizcha maqoldagi **good neighbour**.

Inglizlar ushbu maqolga quyidagicha izoh beradilar. Bir yerdan o'sib chiqqan don– dunning har donasi bir-biriga o'xshamaydi. Biri katta, biri kichik yoki shakli, rangi boshqacha bo'lganidek, hayotda ham nafaqat qo'ldagi barmoqlar yoki don mahsuloti, balki, predmet va insonlar, voqea hodisalar, bir ota-onaning farzandlari, ularning xarakteri yoki tuzilishi bir biriga o'xshamasligi ta'riflanmoqda. Ammo ikki xalqning maqolida ham ushbu mazmunni ifodalash vositasi sifatida, aynan, "barmoq" so'zi qo'llanilgan.

Ushbu maqol ingliz asar va hikoyalarida yana quyidagicha shaklda ham uchraydi:

Half a loaf is better than no bread.

Tarjimasi: "Bir burda non yo'qdan ko'ra yaxshiroq". Ammo ushbu maqolning bugungi kundagi variant: "Hechdan ko'ra, kechi yaxshi".

Ruschavariant: **Лучше мало, чем совсем ничего.**

Dono xalqimizning falsafiy tajribalaridan hisoblangan iboralarimizdan biri:

3. **"Ikki narsa qo'shilib bitta oq bo'lolmas"**. Ushbu xalqimizning iborasi ingliz xalqida xuddi shunday shaklda va mazmunda mavjuddir: **"Two blacks do not make a white"**. Ruscha variant: **"Зломзланепоправишь"**

4. **Devorninghamqulog'i bor.**

Ruschavariant: **Иустенестъуши.**

Лесвидит, аполеслышит

Maqolningso'zma-so'z tarjimasi:

“Wallshaveears.”

Umumiy uch tilda olib qaraganda so'zma – so'z tarjimaholatidam, maqolholatidambirmazmungaega.

Shaklan har xil, mazmuni bir hil bo'lgan maqollar:

Semantik o'xshash, lekin tuzilishi har xil bo'lgan maqollarga biz quyidagilarni keltiramiz.

1. “Oldingdan oqar suvning qadri yo'q”

Ruschavariant: **Цену вещи узнаешь, когда потеряешь.**

Чтоимеем, нехраним, потерявши, плачем.

Inglizcha muqobili esa: **We never know the worth of water till the well is dry.**

Tarjimasi: Quduq qurimaguncha suvning yaxshiligini bilmaymiz, ya'ni quduq qurimasdan doim suv ila to'lib tursa, uning qadriga yetmaymiz, qachonki suvi qurib qolsa, biz suv qanchalik kerakli ekanligini anglab yetamiz.

2. “Sizdan ugina, bizdan bugina”

Ushbu maqolning o'zbekcha, ruscha hamda inglizchada turli variantlari mavjud:

Variantlari: **“Oling qudabering quda”,**

Ka me and I'll ka thee

Tarjimasi: Sen menga xushomad qil, men senga xushomad qilaman.

Filologiya fanlari doktori, professor To'ra Mirzayev, Asqar Musaqllov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 2005-yilda chiqqan O'zbek xalq maqollarining jamlanmasi berilgan bo'lib, ushbu kitobda xalq maqollari 70dan ortiq mavzuga bo'lingan holda jamlangan.

Keltirmoqchi bo'lgan jadvalimizda ikki tildagi maqollarning muqobilini, ayrim mavzulashtirilgan holdagina izohlab keltiramiz. Shu bilan bir qatorda, biz quyida keltirmoqchi bo'lgan maqollarimizning rus tilidagi ko'rinishini ham berib o'tamiz:

2.1-jadval

Ingliz, o'zbek va rus tillarida ayrim mavzulashtirilgan maqollar to'plami va ularning qo'llanish holati

№	Inglizcha maqol	Ruscha maqol	O'zbekcha maqol	Umumiy ma'nosi	salbiy	ijobiy	Neytral
1	We never know the value of water till the well is dry	Что имеем – не храним, потерявши, плачем	Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q	Sabab, bahona, natija	+		
2	Better safe than sorry	Береженног о бог бережет	O'zingga ehtiyot bo'l qo'shnini o'g'ri tutma	Qarindosh urug'chilik va begonalik		+	
3	Two is company, but three is none	Третий – лишний	Uchinchi ortiqcha	Do'stlik va dushmanlik	+		
4	If you rely on God, you won't fail	На Бóга полó Жишьсяне облó жишься	Tavakkalnin g boshi kal	Muhabbat va bevafolik		+	
5	A friend in need is a friend indeed	Коня в рати узнаешь, друга в беде	Qiyinchilikdagi do'st asl do'st	Do'stlik va dushmanlik		+	
6	The more you have, the more you want	Аппетит приходит во время еды	Ishtaha ovqat payti ochiladi	Nafs va ochko'zlik		+	
7	Misfortunes never come	Беданеприходитодна	G'am keldimi	G'am va xursandch		+	

	alone		eshigingni och	ilik			
8	Poverty is no crime	Бедность не порок	Kambag'alli k ayb emas	Foyda va zarar		+	
9	No pain, no gain	Без труда не вынешь и рыбку из пруда	Jon koyitmay ish bitmas	Mehnatse varlik va dangasalik			+
10	Money begets money	Деньги к деньгам идут	Pul pulni topar	Foyda va zarar		+	
11	Little streams make great rivers	Большое складывается из малого	Toma-toma ko'l bo'lur	Mehnatse varlik va dangasalik		+	
12	A roman holiday	Кому на месте не сидится	Kinga-toy Kinga-aza	To'y va motam			+
13	Hares may pull dead lions by the beard	Околевающий пес не укусит	Bo'ri qarisa, itga kulgu bo'lar	Hayvon va qushlar	+		
14	He that once deceives is ever suspected	Соврешь — не помрешь, да вперед не поверят	Yolg'onchini ng rost so'zi ham yolg'on	Yolg'onch ilik va rostlik	+		
15	Where there's a will, there's a way	Было бы желание, а возможность найдётся	Xohish bo'lsa iroda topiladi	Sabab, bahona, natija		+	
16	East or West, home is best	В гостях хорошо, а дома лучше	O'z uying o'lan to'shaging	Vatan va vatanparv arlik		+	
17	Live and learn	Век живи, веку учись	Beshikdan to qabrgacha ilm izla	Ilm, kasb- hunar va ilmsizlik		+	
18	A sound mind in a sound body	В здоровом теле здоровый дух	Sog'tanda sog'lom aql	Sog'liq va dard		+	

19	To tell tales out of school	Выносить сор из избы	Uy siri-yopiqlik qozon	Vatan va vatanparvarlik			+
20	Many a true word is spoken in jest	В каждой шутке есть доля правды	Hazil, hazilning tagi zil	Sabab, bahona, natija	+		
21	He that lives with cripples learn to limp	С кем хлеб-соль водишь, на того и походишь	Qo'shningko'rbo'lsa, ko'zingniqisi byur	Qarindosh urug'chilik va begonalik		+	
22	Dog does not eat dog	Ворон ворону глаз не выклюет	Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas	Hayvon va qushlar			+
23	Cluttony kills more men than the sword	Кручина иссушит и лучину	Nafsi buzuv hayitda o'lar	Nafs va ochko'zlik	+		
24	Time is money	Время – деньги	Vaqt – aqchadir, g'ofilbo'lma, qochadir	Foyda va zarar	+		
25	Time is the best healer	Время – лучший лекарь	Vaqt eng zo'r tabib	Foyda va zarar		+	
26	Time and tide wait for no man	Время не ждёт	Vaqt kutib turmaydi	Foyda va zarar	+		
27	All in good time	Всему своё время	Hamma narsa o'z vaqtida yarashar	Vaqt			+
28	There is a black sheep in every flock	В семье не без уроды	Tirraqi buzoq podani bulg'aydi	Qarindosh - urug'chilik va begonalik	+		
29	It is never too late to mend	Никогда не поздно	Xayrli ishning kechi yo'q	Vaqt		+	
30	Love is the	Любовь зла,	Sevgiga	Muhabbat		+	

	reward of love	полюбишь и козла	mukofot sevgidir	va bevafoqlik			
31	Enough is as good as a feast.	Всё хорошо в меру.	Hamma narsa me'yori bilan shirin	Nafs va ochko'zlik		+	
32	All is well that ends well	Всё хорошо, что хорошо кончается	Hamma ishning boshi- ishning oshi	Yaxshilik va yomonlik			+
33	When in Rome, do as the Romans do	В чужой монастырь со своим уставом не ходят	Rimda rimliklarday yasha	Qarindosh urug'chilik va begonalik		+	
34	A man can do no more than he can	Выше головы не прыгнешь	Cho'michiga siqqanini oladi	Nafs va ochko'zlik		+	
35	The chain is no stronger than its weakest link	Где тонко, там и рвётся	Arg'amchiga qil quvvat	G'urur va xushomad			+
36	You never know what you can do till you try	Глаза боятся, а руки делают	Har bir ishda xato bor	Mehnat va mehnat- sevarlik	+		
37	The face is the index of the mind.	Глаза – зеркало души	So'z aldasa ham ko'z aldamas	Yaxshilik va yomonlik			+
38	Hungry bellies have no ears.	Голодное брюхо ко всему глухо	Och qoringa gap yoqmas	Nafs va ochko'zlik		+	
39	The leopard cannot change his spots.	Горбатого могила исправит	Bukrini go'r tuzatar	Hayvon va qushlar	+		
40	Pride goes before a fall	Гордыня до добра не доводит	G'ururlik g'urbatga solar	G'urur va xushomad	+		
41	Invention breeds invention	Подражани е — самая искренняя форма лести	Topqirlik topqirlikni yaratadi	Ilm, kasb- hunar va ilmsizlik		+	

42	Every dog is a lion at home.	Всяк кулик на своём болоте велик	It ham o'z ko'chasining sheri	Hayvon va qushlar			+
43	Every cook praises his own broth	Всяк кулик своё болото хвалит	Bozorda hech kim o'zining molini yomon demaydi	Hayvon va qushlar			+
44	Every man has a fool in his sleeve	Безумье и на мудрого бывает	Har to'kida bir ayb	To'g'rilik va egrilik haqida	+		
45	Still waters run deep	В тихом омуте черти водятся	Indamasdan ish chiqar	Mehnatse varlik va dangasalik			+

Shu o'rinda maqollarni alohida tahlil qilsak, ulardagi ma'no-mazmun barchasida ham bir xil emasligini ko'rishimiz mumkin. Lekin ilmiy ishimizning ushbu qismining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda maqollarning har uch tildagi variantlarini o'zaro tahlil qilib chiqmoqchi emasmiz. Muhimi ingliz tilidagi ma'lum bir mavzudagi maqollar o'zbek va rus tilida ham uchrashi yoki aksincha, o'zbek va rus tilidagi ma'lum bir mavzudagi maqollar ingliz tilida ham uchrashi mumkin ekanligini isbotladik. Demak, ingliz, rus va o'zbek maqollari ustida mavzu jihatidan olib borgan tadqiqotimizga ko'ra, o'zbek maqollarida uchraydigan barcha mavzularning ingliz va rus tilidagi maqollarda ham uchratishimiz mumkin degan xulosaga kelamiz.

Ayrim maqollar salbiy ma'no uchun ishlatilgani bilan xulosa faqat ijobiy ko'rinishga olib kelish uchun qaratilgan. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, har qaysi millatning maqol va matallari ezgulikka boshlash uchun xuzmat qiladi.

2.1. Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi paremalarning sintaktik tahlili

Tilshunoslikda soʻzning maʼnosi va ifodaviyligini kuchaytirish maqsadida qilingan shakliy-uslubiy oʻzgarishlar *uslubiy-sintaktikfiguralar* deb yuritiladi.

Maʼlumki, har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham boʻla olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar boʻlib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki, badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ taʼsir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon boʻladi.

Paremalarning taʼsirchanligini taʼminlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon boʻlish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos olim A.Abdullayev “sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bogʻlovchilarning maxsus qoʻllanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik soʻroq” kabi uslubiy figuralar “fikrning oʻta taʼsirchan ifodalanishi” ga xizmat qilishini taʼkidlaydi. “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy koʻrinishlari mavjudligini bayon qilishadi: “anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik soʻroq kabilar”[6; 57] Demak, badiiy matnning taʼsirchanligini taʼminlovchi va emotsionalligini oshiruvchi sintaktik usullar quyidagilar: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik soʻroq gap, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, farqlash, oʻxshatishlardir. Ekspressiv sintaktik qurilmalar boʻyicha kuzatishlar olib borgan A.P.Skovorodnikov badiiy

matnda poetik aktuallashadigan sintaktik vositalarning 13 turi mavjudligini qayd etadi:

- 1)Ellipsis
- 2) Antiellipsis
- 3)Kesish
- 4)Pozitsion-leksik takror
- 5)Parselyatsiya
- 6)Segmentatsiya
- 7)Antipatsiya
- 8)Bog'lovchining ayrim turlari
- 9)So'z birikmasikomponentini almashtirish
- 10)Inversiya
- 11)Sintaktik parallelizm
- 12)Ritorik so'roq
- 13)Undov konstruksiyalar [52;213]

Sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq kabi uslubiy figuralar fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi.

Paremalarning emotsionalligini oshiruvchi usullardan biri o'xshatishdir. Insonning olamni bilishda o'xshatishning o'rni beqiyosdir. Doimo kuzatilayotgan narsa va hodisa oldin o'zlashtirilgan narsa va hodisaga qiyoslanadi; ular o'rtasidagi o'xshashlik oldingi nomning yangi narsa va hodisa uchun ham ishlatilishiga sabab bo'ladi. Tilda ilgari mavjud bo'lgan nomning muayyan o'xshashlik asosida yangi ma'no bildirish uchun qo'llanilinishi oddiy nominativ funksiyanigina bajarmaydi, balki tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) vazifani ham bajaradi, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.[58;63] D.Xudoyberganovanning fikricha, o'xshatishlar badiiy adabiyotda tasviriy vosita, tilshunoslikda uslubiy figura, psixologiyada tafakkur amali, falsafada esa dunyoni bilish vositasi sifatida ta'riflanadi.[59;15]O'zbek tilshunosligida o'xshatishning semantik-sintaktik va uslubiy jihatlari bir qator ishlarning,

jumladan, M.Mukarramova[40;55], N.Mahmudov [40;19-24] tadqiqotlarining obyekti bo'lgan.

O'xshatish deb "ikki narsayoki voqea–hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkreteroq, bo'rttiribroq ifodalash" ga aytiladi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik-grammatik traktlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsurdan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni:

- 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt;
- 2) unga o'xshash bo'luvchi narsa yoki obyekt;
- 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi;
- 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi.[36;366]

Biz ham N.Mahmudov[40;20], M.Yo'ldoshev[72;63] fikrlariga tayangan holda o'xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutilishini, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari deb nomlashni lozim deb topdik.

Butunlay olib qaraganda til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman, xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Tilshunos olimlardan Nida biror xalqning tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha, til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash sistemadir. U buni quyidagicha izohlaydi: "Cultural factors are deeply interwoven with the language, and thus are morphologically and structurally reflected in the forms of the language." [35; 277]

Mashhur tilshunos Sapir shuni ta'kidlab aytadiki, tildagi so'z boyligi insoniyatning jismoniy va ijtimoiy atmosferasi orqali vujudga kelgan va bu nazariya asosida tilni madaniyatning bir qismi sifatida keltirishimiz mumkin. Umuman madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ma'lum xalqqa va uning

tarixiga tegishli bilimlar, an'ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglashini tushuntirib o'tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o'rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytib o'tadi. V.Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bo'g'liqligida paremiologiya sohasining rolini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o'zida ifodalay ekan, shubhasiz paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo'lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi. Bunday holatni o'zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi ya'ni, lingvokulturologiya asoslay oladi.

Teliya buni shunday ataydi: "If language contributes to the formation of a collective cultural identity, also paremiology, due its wide spectrum of different forms of usage and due to the fact that it often includes elements which have a strong relationship with the culture of a specific country (part of the body, animals, and colors), can be considered as a domain of linguistics which seems to adequately illustrate the correlation between culture and language. This suggests a new direction of research for proverb studies, called "linguo-cultural investigation", or the analysis of proverbs for cultural data as represented in linguistic meanings"[31;561]

Demak, xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Ko'plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida ishlanilyapti.

Teliya maqollarni "direct cultural signs" deb ataydi va bu orqali u maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko'rsatuvchi omillar ekanligiga ishonadi. Har bir maqol, uning fikricha, xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda, umuman olganda, to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgu deb hisoblaydi. U bu haqda o'z ishlaridan birida shunday deb o'tadi: "After having described the interaction between language, culture and proverbs, it seems also important to mention the ways in

which culture is implemented through language. Each culture has a set of proverbs that could be defined as basic, when they enter the lexicon and the language, it is possible they act as “direct cultural signs”. On the other hand, when linguistic symbols interpret these cultural patterns, then these symbols transform themselves into bodies of those cultural patterns; in this case, language units acquire the status of standard.”[35; 277]

Demak, xalqning tilida mavjud bo’lgan har bir so’z tilda ifodalanar ekan, ma’lum xalqning maqollari o’sha xalq tilida keltirilgan so’zlardan shu xalq vakillari tomonidan, shu xalqning o’ziga xos xususiyatlari bilan, yasash usuli bilangina ifodalanadi.

Ko’plab olimlar Henl P. (1958), Sepir E. (1958), G.G Morian (1986), Kramsh C.(1993) madaniyat va tilning bo’g’liqligi kabi masalalarga o’z ishlarida to’xtalib o’tganlar.

Maqollarning lingvokulturologik sifatlariga to’xtalgan holda olimlardan Nida quyidagilarni bayon etadi: “ One of the most challenging aspects of investigating proverbs of a language is the fact that, being considered as one of the best examples of cultural-linguistic interaction, its categories and identified units are continuously changing, so as culture and language are. This is due to the fact that, contrary to fol or intuitive conceptions, language does not lie in dictionaries nor in grammars, but it only exists in the people’s minds.[35; 277]

Nida maqollarni o’rganishda bevosita tilni va o’sha xalqning madaniyatini o’rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo’lgan leksema o’sha xalqning turmush tarzidan, ya’ni xalq tilidan kelib chiqqan bo’lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi. Aslida tadqiqot ishimizning asosiy qismidan biri bo’lmish ingliz va o’zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlarini ko’rib chiqib, ularning o’xshash va farqli tomonlarini o’rganish ishimizning muhim bosqichlaridan biridir. Shu sababli yuqorida keltirilgan olimlarning nazariyalariga asoslangan holda bir qancha o’zbek va ingliz tillaridagi maqollarni chuqur tahlil qilib, keltirilgan fikrlarimizni isbotlashga harakat qilamiz. Ularda xalq turmush tarzi qay darajada

ifodalanganligini misollar yordamida keltirishga va ikki tilda mavjud bo'lgan maqollarning solishtirma tahlili orqali o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatishga harakat qilamiz. Masalan:

Inglizcha “The nearer the Church, the farther from God” maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak - cherkovga yaqinlashgan sari Xudodan uzoqlashar- ma'nosini beradi.

Bu o'zbek tilida “Besh vaqt namozini tark etmas, Harom-xarishni farq etmas” maqoli orqali ifodalanadi.

Inglizcha maqoldagi “Church” so'zi o'zbekcha tarjimada “cherkov” so'zini beradi. “Cherkov” so'zi asli o'zbekcha so'z emas, lekin o'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan termin sifatida mavjud. “Cherkov” xristian diniga mansub bo'lgan insonlarning shu dinga xos bo'lgan rasm-rusumlarini bajaradigan joy hisoblanadi. O'zbek tilida bu so'zga nisbatan ekvivalent sifatida “masjid” so'zini keltirsak bo'ladi.

Agar uch xalqning dinidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'zbek xalqining ko'pchilik qismi islom diniga, ingliz va rus xalqi deyarli xristian diniga sig'inadi. Xristian dinida cherkov xristianlar uchun eng muqaddas joy sanaladi va yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xristian diniga xos urf-odatlar, an'analar o'sha joyda o'tkaziladi. Islom dinida musulmonlar uchun islom diniga oid rasm-rusumlarni o'tkazish uchun cherkovni aytolmaymiz. Chunki musulmonlar islom diniga xos urf-odatlarni bajarish maqsadida masjid, madrasa kabi ulug' va muqaddas dargohlarga tashrif buyurishadi. “Cherkov” va “masjid” so'zlari har ikki tilda xalq uchun bir xil vazifani bajaruvchi so'zlar bo'lishiga qaramasdan, ular o'ziga xos foydalanish funksiyalariga egadir. Bu o'rinda xalq o'ziga xos va mos bo'lgan atamadan foydalanadi. Shuning uchun ham maqolning o'zbekcha variantida “cherkov” so'zi ishlatilmadi.

Demak, biror xalq hayotida mavjud va kundalik hayotda faol qo'llaniluvchi leksemalar tilda o'z qiyofasini yaratadi va xalqlarning milliy mentalitetini ko'rsatishda maqollarda ishtirok etmay qolmaydi. Agar maqollarning ma'no-mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz xalqining dinida, cherkov ular uchun

naqadar muqaddas joy ekanligini maqolda ifodalangan ma'nodan bilish mumkin. Ularning fikricha, doimiy cherkovga boraveradigan shaxs har doim ham xudojo'y bo'lib qolavermaydi. Bu maqol orqali dinni niqob qilgan, aslida hech qanday diniy bilimga ega bo'lmagan shaxslar ifodalanyapti. Cherkov ular uchun shu qadar muqaddas joyki, uning ko'ngli, qalbi kir insonlar yolg'ondan ulug'lashini istamasligi butun bir xalq tilida ifodalangan.

Agar o'zbekcha variantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u o'zbek tilida quyidagicha: Besh vaqt namozini tark etmas, Harom-xarishni farq etmas. Unda ishlatilgan "besh vaqt namoz", "harom-xarish" kabi so'zlar o'zbek tilida uchraydigan so'zlardandir. O'zbek xalqining, asosan, musulmonlardan iborat ekanligi, ular uchun islom dini buyuk va islom dinidagi eng muhim burchlardan biri besh vaqt namoz o'qish ekanligi o'zbek xalq maqollarida aks etgan. Besh vaqt namoz o'qish islom dinida musulmonlar uchun eng muhim burchlardan biridir. Asosan musulmonlar va o'zbek xalqi uchun besh vaqt namoz o'qish bu ularning kundalik hayotining bir qismidir. Shu sababli xalq bu so'zlardan hayotiy jarayonlarda foydalanadi va bu o'zbek xalq maqollarida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari "harom-xarish" kabi so'zlar islom dinida va shu o'rinda o'zbek xalqi tomonidan ko'p ishlatiladigan so'zlardan biridir. Ota bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan pand –nasihatlariga quloq soladigan bo'lsak, unda hamisha oq-qorani tanish, halol- xaromni bir-biridan ajratish kabi masalalarga juda jiddiy qaralgan. Bu holda maqolning har ikkala tildagi varianti ham bir xil ma'noni beradi.

Demak, o'zbek xalqining ko'pchilik qismi musulmon va besh vaqt namoz o'qiydi, ingliz xalqining ko'p qismi xristian va ular uchun cherkov eng muqaddas dargohdir. Ko'rib turganingizdek, xalq turmush tarzida mavjud narsalar yoki kundalik yumushlar maqollar orqali ifodalandi. Agar o'xshash tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, har ikkala xalq ham dindor va dinidan kelib chiqqan holda, o'z dini uchun muqaddas joylari va muqaddas odatlari bor. Biroq bu ikki tilda ifodalangan maqolning ma'no-mazmuni teng bo'lgani bilan ularda ishlatilgan ayrim so'zlar faqat shu tilga oid leksemalardir va har ikkala xalqning faqat o'zigagina xos bo'lgan odatlarini ifodalaydi. Agar dinlararo umumiy

tushunchalarga to'xtaladigan bo'lsak, u qanday din bo'lishidan qat'iy nazar barchasida jannat, do'zax, shayton, farishta kabi tushunchalar mavjuddir.

Islom dinida shayton yoki jahannam kabi so'zlar salbiy bo'yoqdor so'zlar hisoblanadi va xalq tomonidan ham salbiy ma'noda ishlatiladigan so'zlardir. Xo'sh, bu ingliz xalqi tomonidan qanday qabul qilinadi va bu jihatlar maqollarga singganmi? Ushbu savollarimizga javob olish maqsadida quyida bir nechta maqollarni ko'rib chiqishimiz o'rinli bo'ladi.

“Two blacks do not make a white “

O'zbekcha tarjimasi - Ikki qora qo'shilib bir oq bo'lolmaydi.

O'zbekcha variant sifatida: “Qora itning uyati oq itga tegar” [60;370] dan foydalaniladi.

Agar maqollarning kelib chiqish etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu maqol aynan qaysi xalq tomonidan kelib chiqqanligini aniqlay olamiz. Avval ishimizga aniqlik kiritish maqsadida maqolni grammatik tahlil qilsak.

Inglizcha “Two blacks do not make a white “ maqolida black va white so'zlari aslida sifat so'z turkumiga kiruvchi so'zlar bo'lib, shaxs yoki narsaning belgi xususiyatini ifodalaydi, shuning bilan bir qatorda, hech qachon orqasidan – “S” ya'ni ko'plik qo'shimchasini va yakka o'zi oldidan artikl olmaydi. Bu holatda sifat otlashib insonga xos jihatlarni ko'rsatib, shaxsni bildiruvchi so'z bo'lib kelgan. Ya'ni *a black* aslida a black man, *a white*- a white man so'zlaridagi man so'zi tushib qolgan. Bular ingliz tilida qora tanli va oq tanli odam tarjimalarini beradi. Shu holatda maqolga biroz aniqlik kirdi, ya'ni ikki qora tanli odam hech qachon bir oq tanli odamdek bo'la olmaydi. Maqolning tarjimasidan kelib chiqqan holda, nega ushbu maqol aynan ingliz xalq maqollari tarkibida uchrashini isbotlashga harakat qilamiz. O'tgan davrlarda nafaqat Angliya, balki boshqa Yevropa davlatlarida ham ulkan quldorlik tuzumini olib borish, aynan qora tanli odamlar oq tanli, boy odamlar tomonidan qul qilib ishlatilgani barchaga ayon. O'sha davrda hech qachon oq tanli kishi bilan qora tanli kishi bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lmagan. Natijada ko'pchilik qora tanli kishilar boy va zodagon

oq tanlilar tomonidan boshqarilgan. Bu o'z- o'zidan xalq ruhiga singgan. Natijada bu holatlar tilga ta'sir eta boshlagan va maqollarda o'z aksini topgan.

Demak, "Two blacks do not make a white " maqolida birinchidan, qora tanlilar qanchalik ko'p bo'lsa ham oq tanlilar qo'li ostida yashayveradi va ular hech qachon oq tanlilar kabi yasholmaydi degan ma'no yotadi. Ikkinchidan, barcha yomon narsalar va shaxslar har doim qora rang ostida ifodalanadi. Barcha yaxshi narsalar oq rang bilan ifodalanadi va yomon narsalar qanchalik ko'p bo'lmasin, bir yaxshining o'rnini hech qachon bosolmaydi kabi ma'nolar bor. Maqol birinchi ta'rif orqali qadimda, ya'ni qulchilik davrida yaratilganligini ko'rsatsa, ikkinchi ta'rif orqali bugungi kundagi ifodasini beradi. Hozirda ingliz xalqi tomonidan maqolning birinchi ma'nosi tushunilmaydi. Chunki Angliya va Amerikada har bir fuqaro oq tanli yoki qora tanli bo'lishidan qat'iy nazar teng huquqqa ega fuqaro hisoblanadi.

Agar maqolning o'zbekcha varianti bilan tanishadigan bo'lsak, o'zbek tilida bu maqol hech qachon ingliz tilida berilgan birinchi ta'rifdek ma'no anglatmaydi. Chunki o'zbek xalqi tarixida oq tanli va qora tanli kabi irq'larga ajratishlar bo'lmagan. Buning natijasida o'zbek xalqi kundalik turmush tarzida ham bu so'zlarni uchratish qiyin. Ammo ikkinchi ma'nosi bilan o'zbek xalq urf-odatlariga yaqinroq keladi. "Qora itning uyati oq itga tegar" maqoli orqali xalq bitta yomon odam yoki bitta yomon narsa ko'pchilikka zarar keltirishi mumkinligini aytadi.

Demak, maqolning birinchi ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak "Two blacks do not make a white" maqoli o'zbekcha "Qora itning uyati oq itga tegar" maqoliga teng emas, ya'ni ular bir-biriga ekvivalent bo'lolmaydi. Ammo ikkinchi ta'rif orqali tahlil qilsak, maqollarning ma'nosi deyarli bir xil holatni ifodalaydi. Xullas, qisqa qilib aytganda, ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bilimlar va yangiliklar fikrlarimizning isbotini nazariy jihatdan asoslab bergan bo'lsa, yuqorida lingvokulturologik jihatdan o'rganilgan ayrim ingliz va o'zbek maqollari ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib beradi. Ahamiyatli tomoni shundaki, har ikki tilda mavjud bo'lgan bir xil maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini

ochib beradi. Buning sababi shundaki, xalqda bor narsa uning tilida ham ifodalanadi.

Agar bir narsa yoki holat har ikkala tilda ham mavjud bo'lsa, maqol ko'pincha bir xil ma'no anglatadi. Agar buning aksi bo'lsa, maqollar umuman boshqacha ma'no berishi yoki bir maqolning muqobil varianti qiyoslanayotgan tilda umuman mavjud bo'lmasligi mumkin. Shu o'rinda ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha millatga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining nodir namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va ingliz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda o'zbek va ingliz maqollaribu xalqlarning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rasatib bera oladi.

IKKINCHI BOB BO'YICHA XULOSA

Ingliz, rus va o'zbek maqollarining semantik xususiyatlarini o'rganish jarayonida, ayrim mavzudagi maqollarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqdik. Ikkinchi bobda har uch tildagi eng faol mavzudagi maqollarning tahlillarini qilgan holda quyidagi xulosalarga keldik.

- Ingliz maqollarini rus va o'zbek tiliga yoki o'zbek va rus maqollarini ingliz tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash, avvalo, ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma'no-mazmunini chuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Aks holda, xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o'zining asl ma'nosini butunlay yetkaza olmasligi mumkin.

- Ingliz, rus va o'zbek tilidagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarning ko'pchiligi semantik jihatdan bir-birini ta'minlaydi. Har uch tildagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarda insonni mehnatkash bo'lishga undash, dangasalik va ishyoqmaslik insonning eng jirkanch illati sifatida qaraladi.

- O'zbek, rus va ingliz tillaridagi ko'pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma'no- mazmunga egadir. Faqat har tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalanilmagan. Odatda tarjimada turlicha ma'noga ega bo'lgan maqollarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish jarayonida bir xil ma'no anglatishi kuzatiladi. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir ingliz, rus va o'zbek maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi

- Ingliz, rus va o'zbek xalq maqollarining ko'pchilik qismida hayvon obrazlari ifodalangan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini

ifodalashdir va hayvon obrazlari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi

- Hayvon obrazlari keltirilgan ingliz tilidagi maqollarning o'zbekcha va ruscha muqobil variantlarida, aynan, bir xil hayvonning nomi ishlatilmasligi yoki umuman hayvon nomi qatnashmasligi maqolning har uch tildagi umumiy ma'nosiga ta'sir ko'rsatmaydi. Xullas, keltirib o'tgan mavzulardagi maqollarning har tilda unchalik katta farqlari topilmadi. Biroq, asosiy manba sifatida foydalanayotgan kitobimiz K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning "Proverbs. Maqollar. Пословицы" da ayrim maqollarning variantlari bir-biriga aynan to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham maqollarning semantik jihatlarini chuqur o'rganish va ularni semantik tahlil qilish orqali ingliz va o'zbek tillaridagi ekvivalentlarni to'g'ri tanlay olamiz.

UCHINCHI BOB
TURLI TIZIMLI TILLARDA YAXSHILIK VA YOMONLIK
IFODALOVCHI PAREMALARNING STRUKTURAL TAHLILI VA
LINGVODIDAKTIKA MASALALARI

**3.1. Turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi paremalar
strukturalari**

Yaxshilik va yomonlik — axloqshunoslik fanining juft tushunchasi. Odamlarning xatti-harakatlariga, ijtimoiy hodisalarga berilgan ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalaydi. Yaxshilik — eng muhim fazilat boʻlib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bagʻishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Shuning uchun ham "ezgu (yaxshi) fikr", "ezgu (yaxshi) soʻz", "ezgu (yaxshi) amal" tushunchalari Avestodan tortib, barcha muqaddas kitoblarda yetakchi oʻrin egallagan. Yaxshilik insonning axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, unda kamtarlik, ochiqkoʻngillilik, mardlik, halollik, insoflilik, adolat, rostgoʻylik kabi fazilatlar mujassam boʻladi.

Yomonlik — yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga toʻsqinlik qiluvchi illat. Yolgʻonchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon boʻladi. Diniy nuqtai nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi. Qurʼonda yaxshilik qilish insonning tabiiy burchi ekani, Alloh insonga oʻzining neʼmatlari bilan ehson qilganidek, inson ham boshqalarga yaxshilik qilishi lozimligi taʼkidlanadi. Musulmonlar tasavvuriga koʻra, odamlar bu dunyodagi yaxshi ishlari uchun narigi dunyoda mukofotini oladi, yaʼni huzur-halovatga

muyassar bo'ladi, yomon ishlari uchun do'zax azobiga duchor etiladi. Qur'onda "Agar chiroyli amallar qilsangizlar — o'zlaringizga yaxshilik qilgan bo'lursizlar. Agar yomon, gunoh amallar qilsangizlar ham o'zlaringiz uchundir", deyiladi (17sura, 7oyat). Keyingi davrlarda yaxshi va yomoninso'n o'z manfaatlarini himoya qilishda to'g'ri yoki noto'g'ri yo'l tutishi natijasida yuzaga keladi, degan fikr o'rta'ga tashlandi. Mutafakkirlar yomonlikni inson hayotidan chiqarib tashlash uchun uni vujudga keltiruvchi ijtimoiy sharoitni yo'q qilish zarur deb ta'lim beradi. yaxshi va yomonliktushunchalari inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega: uni insonning ulug'ligi yoki tubanligini o'lchaydigan muqaddas taroziga o'xshatish mumkin. Inson shaxsidagi yutuq va kamchiliklar, jamiyatning takomilga erishgan yoki erishmagani shu mezonlar bilan o'lchanadi.

Qaysi jamiyatda yaxshilik ko'payib, yomonlik kamayib borsa, o'sha jamiyat ahloqiy yuksaklikka, farovonlikka, taraqqiyotga tezroq erishadi; shaxsiy munosabatlarda xiyonat, g'azab, kibr, hasad, qasd, munofiqlik kabi illatlar asta-sekin yo'qolib, xushhulqlik, shirinsuxanlik, halollik, bag'rikenglik singari fazilatlar ko'proq o'rin egallab boradi, natijada jamiyatda yaxshilikning ustuvor bo'lishiga olib keladi. [54;58]

O'zbek tilida yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqollar ko'plab uchratiladi. Maqollarning deyarli barcha qismi **Sn+Sn** struktur sxemali gap shaklida ishlatiladi. Ushbu sxema bo'yicha yasalgan sodda yig'iq gaplar rus tilidagi kabi kam uchraydi, masalan[25;89]: *Podsholik - qonxo'rlik; Vaqt – omad; Yoshlik – beboshlik; Qarilik– hastalik; Mastlik – pastlik; Bolalik- podshohlik; Asad- rasamat; Basharam – shajaram.*

Bu gaplarning ba'zilari inkor gaplar hisoblanadi: *Kambag'allik ayb emas; Yolg'onchi-kishi emas.*

Sn+Sn konstruksiyalari murakkab bog'lovchisiz gaplar tarkibiga kirishi mumkin, masalan: *Odam- gavhar, qo'li- gul; Yolg'onchi qallo'p, o'g'ri allo'p;*

Sn+Sn strukturali sodda yoyiq gaplar o'zbek tilida ko'p uchraydi, masalan: *Yutuqning kaliti- mehnat; Baxt garovi- do'stlik; Baxt belgisi- bilim; Baxt*

yalqovga- begona; Kambag'alning boyligi - tanining sog'ligi; Vatan tuprog'i - g'alaba garovi; Odam-odamga yov; Salomatlik – tanga katta ne'mat; Tavakkal-yerning yo'ldoshi; Aqlning o'lchovi- idrok; Ahmoqnining javobi sukut.

Ko'pgina **Sn+Sn** struktur sxemali maqollar o'zlarida obrazli qiyosni ifodalaydi, masalan: *Umr – o'tkinchi mehmon; Umrning egovi- qayg'u; Ish-insonning gavhari; Ona yurti- oltin beshiging; Vatanning vayronasi- umrning g'amxonasi; Xalq harakati- dengiz to'lqini; Odam aqli- olmos; Odamning qo'li - gul; Umr - ariqdan oqqan suv; Aqli ish- qanotli qush; Bilim - aql chirog'i; Ilm-tubsiz quduq; Aytilgan s o'z – otilgan o'q; Haqiqat- oltindan qimmat.*

Ba'zan solishtirmalar inkor orqali bo'lishi mumkin, masalan: *Qarilik - davosiz dard.* Maqollarga ega vazifasida substantiv gap bo'laklari keladigan konstruksiyalarni kiritishimiz mumkin. Masalan:

1) Sifatdosh: *Yovdan qo'rqqan - yovga do'st, elni suygan - elga; Maydonda sinalgan - elda aziz; O'z aybini bilgan - mard; Adashganni yo'lga solgan - mard;*

2) Sifat: *Elga ma'qul- senga ma'qul; Bilimli- olim, bilimsiz- zolim; Aqlsiz jahilli- jahlsiz aqli; Shuhratparast- hamisha pastkash;*

3) Harakat nomi: *Qo'rqish- yengilishning chopari, Chidamli bo'lish, kuchli bo'lish;*

4) Boshqa so'z turkumlari: *Elda bori- senda bori; Birov- tojdor,birov-bojdor;*

Ko'p hollarda nominasentrik maqollarda ikkita bir xil ega yoki ikkita bir xil kesim bo'lishi mumkin, masalan: *Er-xotin- qo'sh ho'kiz; Mehnat va o'qish- og'a-ini.*

Gapning bosh bo'laklari vazifasida tez-tez miqdoriy-ismiy birikmalar keladi: *Yaxshi maslahat- yarim baxt; Yaxshi xotin- yarim rizq; Bir bosh- balo bosh,ikki bosh- mardona; Bir yigit- bir elga rizq; Bir kalla- kalla, ikki kalla- tilla; Bir kishi- bir kishi, ming kishi- ming kishi; Bir ko'rgan- oshno, ikki ko'rgan qarindosh; Bir miri- hamyon, uch miri- ziyon.*

Ba'zan konstruksiyalar tarkibiga determinantlar (to'ldiruvchi va hol) kiradi. Masalan: *O'z joyida kuchuk ham sher;Ahmoqqa Quva bir qadam;Bilimliga dunyo*

yorug', bilimsizga- qorong'i. Bog'lovchisiz murakkab gaplar keng tarqalgan (ikki predikativ asosli gaplar). Masalan: *Suv- dehqonning qoni, yer- uning joni; Boyning so'zi boy, yo'qning so'zi loy; Sog'lik- umrning garovi, uyqu- umrning darmoni; Tavakkal- nor, andisha- moda; Maktab- kema, ilm- dengiz; O'qish bilim o'chog'i, bilim- umr bulog'i; Ilm- aql bulog'i, aql- yashash chirog'i;*

Faqat ba'zi hollarda nominasentrik konstruksiyadan iborat bo'lgan bog'lovchisiz murakkab gaplar boshqa predikativ birliklar bilan to'ldiriladi, masalan: *Xalq- tosh, amaldor- suv, suv kema berar, tosh qola berar;*

Shart ma'nosidagi murakkab gaplar tarkibiga yo faqat nominasentrik konstruksiyalar, yoki boshqa predikativ birikmali nominasentrik konstruksiyalar kiradi:

1.Non qon bo'lsa, qon-jon; Aytilgan so'z kumush bo'lsa, aytilmagan so'z - oltin; So'zlaguvchi nodon bo'lsa, eshitguvchi dono bo'lsin;

2.Pul- qo'lning kiri, yuvsan ketar; So'z chumchuq emas og'izdan chiqsa tutib bo'lmas;

Tarkibiga nominasentrik konstruksiyalar kiruvchi ko'pgina bog'lovchisiz murakkab gaplar sintaktik parallelizm bilan xarakterlanadi. Masalan: *Suv- dehqonning qoni, yer- uning joni; Taka go'sht emas, amaldor do'st emas; Qarilik davri- qishday, yoshlik davri- yoxday; Aql- ilm kiyimi, zehn- fikr buyumi; Aqlsiz bosh- nursiz chiroq; Ilmsiz olim, to'qimsiz eshak; Do'stsiz boshim, tuzsiz oshim; Sevgisiz ko'ngil- egasiz uy; Suvsiz yer- yetim, molsiz er- yetim; Aqlli xotin- uy ko'rki, chiroyli xotin- ko'cha ko'rki.*

Agar ikki yoki bir necha nominasentrik konstruksiyalarda ayni ma'no predmeti bo'lsa, unda bog'lovchisiz murakkab gaplar ellipsisli bo'lishi mumkin, masalan: *Pul- belga quvvat, (pul) boshga- toj; Bilimlga dunyo - yorug', bilimsizga(dunyo) - qorong'i; Birinchi kun - oltin mehmon, ikkinchi kun - kumush (mehmon), uchinchi kun - mis (mehmon), uchdan o'tsa - pes (mehmon).*

Ikki nominasentrik konstruksiyadan iborat bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ba'zan ikkilangan oppozitsiya munosabati bo'ladi (ikkilangan antonimlik). Masalan: *Borning yuzi yorug', yo'qning yuzi- choriq; Yaxshining ishi- atir,*

yomonning ishi- zahar; Yaxshining ishi- jannat, yomonning ishi- kasofat; Yaxshining ko'ngli- tog', baxtlining ko'ngli- bog'; Yaxshi qo'shni- ota-ona, yomon- qo'shni boshga balo; Aql- do'st, jahl- dushman; Achchiq- dushman, aql- do'st; Ilmli uy- charig'on, ilmsiz uy- zimiston; Bolali uy- bozor, bolasiz uy- mozor; Yaxshi bola- suyuq, yomon bola- kuyuk; Aqlli do'st - rohat, aqlsiz do'st - ofat.

Bir-biridan alohida leksemalar yoki so'z tartibi bilan farqlanuvchi nominasentrik konstruksiyalar variantlari hisoblangan turli nominasentrik maqollarda bir xil ma'no ifodalanishi mumkin. Masalan: *Yosh chog'im- oltin chog'im* ; *Yoshlik vaqtim- oltin taxtim*; *Qayg'u- umr egovi*; *Umrning egovi – qayg'u*; *Sog'lik – tuman boylik*; *Salomatlik – tuman boylik*; *Aql – do'st, jahl – dushman*; *Achchiq – dushman, aql – do'st*; *Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor*; *Bolali uy – jannat, bolasiz uy – minnat*; *Bolali uy – xandon, bolasiz uy – zindon*;

O'zbekcha nominasentrik maqollarga xos bo'lgan narsa bir so'zning takroran qo'llanilishidir. Masalan: *Sevgi yerga – sevgi Vatanga*; *Xalq ishi – haq ishi*; *Elga ma'qul – senga ma'qul*; *Xalq ovozi – xalq nog'orasi*, *Xalq hukmi – haq hukmi*; *Oq it, qora it – bari bir it*; *Odam shaytoni – odam*; *Odam – odamning ko'zgusi*; *Umr savdosi – qiyin savdo*; *Qarilik uy – qayg'uli uy*; *Boylikboylik emas, birlik – boylik*; *Begona tuproq – devona tuproq*; *Ish do'sting – jon do'sting*; *Botir o'rtoq – boy o'rtoq*; *Xotin er orqasidan – xotin, xotin xon orqasidan – xonim*; *Bozorim bozor emas, ovulim bozor*; *Avvalgi savdo – savdo, keyingi savdo – g'avg'o*.

Bunday takror tufayli so'z har safar nominasentrik maqollar qatnashgan matnda aniq namoyon bo'ladigan yangi ma'no, yangi mazmun qirralarini ifodalaydi. O'zbek maqollarining xalqchilligi, nazmiyligi vazn, qofiya va ritmni ta'kidlaydi. Masalan: *Vaqt g'animat, o'tsa –*, *vaqtli harakat – oxiri barakat* (, *Odam bolasi – elning lolasi*, *O'lim hayot dushmani*, *qaytib kelmas pushmoni*, *Ish boshlaganda – ermak*, *bitmay qolsa – emgak*; *Yaxshi xislat – go'zal fazilat*; *Xalq sog'ligi – yurt boyligi*; *Aql- farosat – nisbi karomat*; *Aql – chiroq, g'amdan yiroq*; *Ilm – xazina, bilim – dafina*.

Soʻz va boʻgʻinlarning sonining bir xil miqdorda boʻlishi qofiyaning yasalishini taʼminlaydi: *Vatanga falokat – oʻzingga halokat; Xalq sadosi – haq nidosi; Ilm oʻlchovi – aql, zehn oʻlchovi – naql (aforizm).*

Baʼzi nominasentrik maqollar urgʻuli va urgʻusiz boʻgʻinlar teng ravishda ketma-ket kelgan ikki predikativ birliklarda teng boʻgʻin miqdoriga ega boʻlgan qisqa sheʼriy asarlarni eslatadi. Masalan: *Bir miri – hamyon, uch miri – ziyon.*

Dalillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek maqollari orasida Sn+Sn tuzilish sxemasiga ega boʻlgan konstruksiyalar ustunlik qiladi. Boshqa tuzilish sxemasiga ega boʻlgan konstruksiyalar ancha kam uchraydi.

Quyidagi jadvalda ayrim maqollarning toʻgʻridan – toʻgʻri tarjimasi hamda muqobil varianti bilan berib oʻtamiz.

3.1-jadval

Inglizcha maqol	Oʻzbekcha tarjimasi	Oʻzbekcha muqobil varianti
Every bird likes its own nest	Har bir qush oʻz inini sevadi	Bulbul chamanni sevar-Odam Vatanni
Speak less but do more	Koʻp gapirma, koʻp ishla	Qoʻling ishda, koʻngling Allohda boʻlsin
Back is spent under his belly, What is got over the devil's	Shayton kuchi bilan topilgan, shayton puchi bilan ketar	Haromdan yigʻilgan haromga ketar
Ill gotten, ill spent	Yomonlik bilan topilgan yomonlikka ketar	Haromdan kelgan haromga ketar
Forgive and forget	Kechir va unut	Yomonlikni yaxshilik bilan yeng
Give him an inch and hell take an ell	Unga bir duym bersang, bir el oladi	Insof bilan qoʻl uzatsang, Noinsof yelkanggacha chiqar
A bad excuse is better	Xohlamasdan kechirim	Yaxshi gap bilan ilon

than none	so'rash yo'g'idan yaxshidir	inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan
It is an equal failing to trust everybody and to trust nobody	Hammaga ishongan va hech kimga ishonmaslik bir xil xatodir	Har kimning bo'yiga qarab to'n bich
Long hair and short wit	Sochi uzun, aqli kalta	Aqlli boshda soch turmas

Yuqorida keltirilgan maqollarni o'zbekchaga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, ayrim hollarda tushunmaslik muammosi yuzaga keladi, shuning uchun ham misol tariqasida berilgan maqollar faqatgina, muqobil o'zbekcha ko'rinishi yordamida ko'rsatib o'tilgan. Jadvaldagi maqollarning sonini ko'paytirgan holda ishlab chiqib o'zbek tarjimashunosligini yanada boyitish mumkin.

3.2. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid bo'lgan o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari

Ilmiy ishimizning ushbu bobi o'zbek va ingliz maqollarining semantik xususiyatlariga bag'ishlanganligi bois, ingliz va o'zbek xalq maqollarining semantik jihatdan bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini topish dissertatsiyamizning ushbu bobini yanada takomillashtirishga yordam beradi. Shu bois, ingliz va o'zbek xalq maqollari tarkibida hajm jihatidan ko'p va kundalik hayotda faol ishlatiluvchi maqollarning semantikasiga to'xtalib o'tamiz. Ushbu qismda ingliz va o'zbek maqollarida eng ko'p uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid ayrim maqollarning ingliz va o'zbekcha variantlarini tahlil qilgan holda, maqollarning har ikkala tilda uchrovchi o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Kundalik hayotimizda uchrovchi yaxshilik va yomonlik leksemalarining maqollarda keng ko'lamda uchrashi tabiiy holdir. Chunki maqollar xalqning hayotiy haqiqatga nisbatan qarashlarini va munosabatlarini ko'rsatuvchi hodisadir. Ingliz va o'zbek maqollarida uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusidagi maqollar xalqning ushbu tushunchalarga bo'lgan munosabatlarini yaqqol ifoda etadi. Tahlil qilmoqchi bo'lgan yaxshilik va yomonlik mavzusidagi o'zbek va ingliz xalq maqollarini asosiy manbaa sifatida K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning "Proverbs. Maqollar. Пословицы" deb nomlangan kitobidan keltiramiz.

Inglizcha: A bad beginning makes a bad ending

Inglizcha: A good beginning makes a good ending.

O'zbekcha: Yomonchilik bo'lganda, qor ustiga muz yog'ar.

O'zbekcha: Yaxshi yil — bahoridan, Yomon kun — saharidan ma'lum.

Ushbu maqol eng ommabop maqollar sirasiga kiradi. Biror ishning natijasi qanday bo'lishi, uning qanday boshlanishiga bog'liq ekanligi maqollarda ham o'z aksini topa olgan. Odatda boshlagan ishimizning yakuni uni qanday ruhiyatda boshlashimizga va yon-atrofimizdagilarni bunga bo'lgan munosabatiga bog'liq

bo'ladi. Shuning uchun ham ishni yaxshi boshlasak yaxshi, aksincha, yomon boshlasak yomon yakun topishi maqollarda ifodalangan.

Inglizcha maqol : A bad excuse is better than none

O'zbekcha variant: Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan.

Maqolning inglizcha variantini o'zbek tiliga tarjima qilsak, umuman kechirim so'ramagandan ko'ra, kech bo'lsa ham kechirim so'ragan ma'qul degan tarjimani beradi. Maqol bir qarashda o'zbekcha "Hechdan ko'ra kech yaxshi" maqolini esga tushirishi mumkin. Ammo maqolning har ikkala tildagi variantini chuqur tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, "Hechdan ko'ra kech yaxshi" muqobil variant bo'lolmasligiga amin bo'lamiz. Negaki, "A bad excuse is better than none" maqoli ingliz xalqi tomonidan insonni kechirimli bo'lishga, har qanday sharoitda ham insonlar orasida yaxshi xulq-atvorli bo'lish kerakligiga o'rgatadi. Inson yaxshilik bilan, shirin so'zlik orqali ko'plab yutuqlarga erishishi va hayotini bir tekisda olib borishi mumkinligi ayiladi.

Maqolning o'zbekcha variantida keltirgan fikrlarimizning yanada ta'sirchan qilib ifodalanganini ko'ramiz. Ya'ni: "Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan" maqoli orqali o'zbek xalqi insonni hamisha shirinso'z bo'lishi kerakligini uqtiradi. Maqolda ishlatilgan "ilon" obrazi qanchalik xavfli hayvon ekanligi barchaga ma'lum. Aslida bu obraz tagida salbiy xususiyatli insonlar qo'shtirnoq ichiga olinadi. Ya'ni har qanday yomon, razil, zahar insonlar ham yaxshi gapga kirishi mumkinligi xalq tajribasidan kelib chiqqan holda maqolda o'z aksini topadi. Demak, keltirib o'tgan maqolimizning har ikki tildagi variantlari bir xil ma'no-mazmunga ega. Bu jihatdan o'zbek va ingliz xalqining insonlar orasidagi muloqotda g'oyatda shirin so'z bo'lish kerakligi insonlarga xos xususiyatlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltiradigan maqollarimiz orqali o'zbek va ingliz xalqining yaxshilik va yomonlikka nisbatan bergan baholarini yanada aniqroq tushunib olish maqsadida quyidagi maqollarni ham ko'rib chiqamiz.

Inglizcha maqol :Look on the bright side.

O'zbekcha variant: Yorug' tarafga qara.

Inglizcha maqol: It is a good horse that never stumbles

O'zbekcha tarjimasi: Otning yaxshisi tizidan ma'lum, Odamning yaxshisi — so'zidan

Lekin bular bizo'zbek va ingliz maqollarida faqat tegulik va yaxshilik tushunchalari keng ifodalangan deyolmaymiz. Yomonlik va yomon inson bo'lishning salbiy oqibatlarini haqida ham maqollar mavjud. Ular quyidagicha:

Inglizcha maqol : Make the worst of both worlds.

O'zbekcha variant: Ikkala dunyoning ham eng yomon ishini qilmoq

Inglizcha maqol: Hope for the best and prepare for the worst

O'zbekcha tarjimasi: Yaxshilikka umid bog'la va yomonlikka tayyor bo'l.

Dono xalqimiz hamisha kechirimli bo'lishni eng yaxshi fazilat deb biladi. Yovuzlikni yo'qotishning eng buyuk tadbiri yaxshilik ekanligi maqollarda ifodalanadi. Yomonlik ustidan faqat yaxshilik bilan g'alaba qozonish mumkinligi xalq maqollarida o'z ifodasini topgan. Buni quyida keltirajak ingliz va o'zbek xalq maqollari misolida berib o'tamiz.

Inglizcha maqol : Wrong never comes right

O'zbekcha variant: Yomonlik qilganga yaxshilik qil.

Inglizcha maqol: One good turn deserves another.

O'zbekcha tarjimasi: Yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytar, Yomonlik qilsang — yomonlik.

O'zbek va ingliz tillaridagi yaxshilik va yomonlik mavzulariga oid bir qancha maqollarni semantik tahlil qilib, ma'no jihatidan bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarni o'rganib chiqishga harakat qildik.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tillaridagi ko'pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar deyarli bir xil ma'no-mazmunga egadir. Faqat har ikki tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalanilmagan. Odatda, tarjimada turlicha ma'noga ega bo'lgan maqollarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish jarayonida bir xil ma'no anglatishi kuzatiladi. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir ingliz va o'zbek maqollarining barchasida

yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi. Xullas, yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid o'zbek va ingliz xalq maqollari semantik jihatdan deyarli bir-xil ma'no anglatadi.

3.2-jadval

Maqollarda sinonimik holat

Inglizc ha maqol	Inglizc ha sinoni mi	Ruscha tarjimasi	Ruscha sinonimi	O'zbekcha tarjimasi	O'zbekc ha sinonimi
East or West, home is best	There's no place like home	В гостях хорошо, а дома лучше	Восток ли, запад ли, а дома лучше всего	O'z uying o'lan to'shaging	O'zga yurtda shoh bo'lgunc ha, o'z yurtingd a gado bo'l
Every family has its black sheep	No family has no ugly membe r	В семье не без урода	Без худа добра не бывает	Har to'kisda bir ayb	Beayb parvardi gor
It is never too late to learn	Live and learn	Учиться никогда не поздно	Век живи, век учись	Beshikdan to qabrgacha ilm izla	-
A bird may be	The bird is	Видна птица по	Птицу можно	Inson mehnatda bilinar	Do'st kulfatda

known by its song	known by its flight	полёту	узнать по её песне		bilinar
Time heals all wounds	Time is the best healer	Вре́мя - лу́чший до́ктор	Вре́мя пройде́т — слезы утре́т	Vaqt yaxshi davо	Vaqt- tabib
It's better less but better	Too much of the thing is good for nothin g	Лу́чше ме́ньше, да лу́чше	Лучше износите́ ся, чем заржаве́т ь	Ozgina-yu, sozgina	Hechdan ko'ra kech yaxshi
Love's evil, you'll love even a goat	Love is blind	Любо́вь зла́, полю́би шь и козла́	Любовь, как и ненавист ь слепа	Sevgining ko'zi ko'r	-
Slow and steady wins the race	Ride slower - you'll get further	Ти́ше е́дешь - да́льше бу́дешь	-	Sekin chopgan – uzoqqa borar	Jo'jani kuzda sanaymiz
If you	If you	Если	Если	Ikkiqayiqqatirmashganqayiq	Ikki

run after two hares, you will catch neither	try to please all, you will please none	побежи шь за двумя зайцами, то ни одного не поймаеш ь	пытаешь ся угодить всем, то никому не угодишь	sizqolar	quyon ortidan yugurgan och qolar
It's no use pumpi ng a dry well	It's not worth crying over spilt milk	Бесполез но качать воду из пустого колодца	Не стоит плакать над сбежавш им молоком	Oldingdan oqqan suvni qadri yo'q	Zar qadrini zargar bilar
Love will find a way	Love is stronge r than death	Любовь дорогу найдет	Любовь побежда ет всё, любовь сильнее смерти	Izlagan imkon topar	

Jadvaldamaqollarningsinonimikko' rinishikeltirilgabo'lib,
uorqalinutqdatakroriylikdanqochiladi. Yozmanutqdabirmaqolniqayta-
qaytaishlatishma' noningkuchsizligigaolibkeladi,
birmaqolo' rnidauningma' nodoshiishlatilsa,o' quvchigayetkazilganfikryanadakuchli
ko' rinadi.

3.3. Paremalarni o'rganish va o'rgatishning samarali texnologiyasi

Maqollar eskirmaydi. Ular o'tmishnigina eslatish bilan kifoyalanmaydi. Ularda xalq kuchi, qudrati mujassamlashgan. Ular xalqning o'z tajribalari tufayli yaxlitlashgan aql idroki, bevosita tajribalarda to'plangan tafakkur qaymoqlaridir. Albatta, maqol xalq tafakkurining xotirasi ham hisoblanadi. Ammo xotirada keraksiz narsalar saqlanmaydi, balki bugunga, ertangi kunga

xizmat qiladigan, asqotadigan narsalargina saqlanib qoladi. Demak,maqollar bizning bugunimiz uchunham zarur bo'lgan hikmatlardir.

Maqollarni o'rganishning shakl va usullari ko'p. Jumladan, ularni mashg'ulotlar jarayonida ham o'rganish ko'zda tutilgan.Shuningdek maqollarni o'rganishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish juda samarali o'rin tutadi. Bunda guruhlariga bo'linish talab etiladi. Guruhlarga bo'linishningo'zida hamma hollardan foydalanish mumkin. Buning uchun ikki komponentli,yoki uch komponentli maqollar tanlab olinadi va ular qismlarga bo'lingan holda kartochkalarga yoziladi. Maqollarning boshlanishini o'qigan o'quvchiga uning davomini qo'lda tutib turgan bola o'qiydi va ular bir guruhga birlashadi. Shu tarzda guruhga ajralishningo'zi ham maqollarni o'qish jarayoniga aylanadi.

Ikkinchi usulmaqoldagi so'zlar alohida – alohida kartochkalarga yozilgan bo'ladi. Ammo kartochkalar umumiy kartondan qirqibolingan bo'ladi. Ularning qirqilgan joylari bir-biriga mosbo'lgan holda maqol to'la holdatiklanadi. Qaysi quruh o'z maqollarini oldin tiklasa, shu guruh o'z maqolini ovoz chiqargan holda, jo'r bo'lib o'qiydi.

Maqollar mavzusini o'rganishdaturli xil shakllar mavjud. Biz ularning ayrimlarinieslatib o'tamiz.

“Kim ko'pmaqol biladi” o'yini. Tomonlar galma-galdan maqollarni aytishadi. Qaysi guruh yoki tomon tutilmasdan, aniq, muntazam javob berib borsa, o'sha tomon yoki guruh yutadi. Maqollarning ifodali o'qilishiga alohida e'tibor beriladi. Navbatdagi maqollarni topishda taraddudlanib qolgan, ikkilangan yoki topolmay qolgan (jarima ballini olgan) tomon yengilgan hisoblanadi. Bir tomon aytganmaqolni boshqa tomonning takroran aytishiga yo'l qo'yilmaydi. “Maqollarni sharxlaymiz“ o'yini. Bunda o'quvchilar guruhlariga bo'linishadi.Bir guruh tegishli maqollarni aytadi. Boshqalar uni sharhlab, izohlab berishga harakat qilishadi. Bunda nisbatan aniqroq, kengroq, tushunarliroq hamda ta'sirchanroq tarzda sharhlab berishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu usulda maqollarning mazmuni, uning qanday hayotiy vaziyatlarda qo'llanishini idrok etish uchun real sharoit yaratiladi.

“Maqollar zanjiri” o’yini. Bu o’yin baytbaraklar asosida yuzaga kelgan. Undagi asosiy talab bir guruh (tomon) aytgan maqol qaysi harf, tovush bilan tugasa, keyingi tomon ayni manashu harf, tovush bilan boshlanadigan maqolni aytishi kerak bo’ladi: Aytar so’zni ayt, Aytmas so’zdan qayt. –Til – aql bezagi. It egasini hurmas. –Sabrning tagi sariq oltin...

“Marraga kim oldin keladi” o’yini. Uning mohiyati shundan iborat: Markazdan ikki tomonga bir xil o’lchamdagi lenta tortiladi. Lentalarining uchlari tayoqqa o’raladi. Asosiy vazifa mana shu lenta markazga borguncha o’rab borishdan iborat. Faqat o’sha jarayonida muntazam ravishda maqollardan namunalar aytib boriladi. Maqollar aytilmagan holda lentani o’rashga ruxsat berilmaydi. Agar bu qoida buzilsa, jarima bali belgilanadi. Lentaning oxirigacha maqollar silsilasini uzmasdan yetkazgan o’quvchi g’olib hisoblanadi.

“Maqollar bozori” o’yini. Bunda o’quvchilar yangi maqollar bilan tanishtiriladi. Amalga oshirish shakli esa quyidagicha bo’ladi: o’yinda ikki o’quvchi ishtirok etadi. Ulardan biri “sotuvchi”, ikkinchisi xaridor bo’ladi. “Sotuvchi” “xaridor”ga o’z maqollarini taklif etadi. U maqolning boshlanish qismini o’qiydi, xaridor esa uni davom ettiradi. Davom ettirilmagan maqol yangi hisoblanadi. Xaridor uni ovoz chiqarib ifodali tarzda o’qib beradi. Ular orasida hamma biladigan maqollar ham, ko’pchilik bilmaydiganlari ham tanlangan bo’lishi kerak. “Xaridor” mana shu yangi maqollarni oladi va ularni ovoz chiqarib o’qib beradi. Ayni paytda, “Xaridor” ham o’z “bisoti”dagi yangi maqollarni “sotuvchiga” tavsiya etishi mumkin. Sotuvchi ham o’zi uchun yangi bo’lgan maqollarni tanlab oladi, ularni ovoz chiqarib o’qiydi. Bunda ham har bir maqolni o’qish va aytishda ifodali o’qish qoidalariga to’la rioya etish talab etiladi.

“Maqollarning mavzuli estafetasi” o’yini

Bu o’yin estafeta qoidalariga asosida tashkil etiladi. Estafeta tayoqchasi (bu vazifani bayroqcha, ruchka, qalam, istalgan bitta o’yinchoq ham ado etishi mumkin) maqol aytish navbatini belgilab beradi. O’yinda barcha guruhlar ishtirok etadi. Ishtirokchilar navbati bilan maqollarni aytishadi, navbatni keyingi guruhga

o'tkazishadi. Bunda ham oldin aytilgan maqollarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

“Koptokni qaytarish” o'yini

Bolalar davra qurib turishadi. Ularning orasidan bitta boshlovchi saylanadi. Boshlovchi o'rtada turib koptokni o'rtoqlaridan biriga otadi. Koptok otish barobarida bitta maqolning boshlanishi aytiladi:

”Yer haydasang”

”Bilimi bor”

”Avval o'yla ...”

Koptokni olgan o'quvchi uni boshlovchiga qaytarishi kerak. Ayni paytda u maqolning davomini ham aytishi talab etiladi. Maqolni davom ettirmagan bola o'yindan chiqib ketadi. Maqollarni eng ko'p marta davom ettirgan o'quvchi keyingi davrada boshlovchi vazifasini ado etadi.

Albatta, bu o'yinlar faqat o'yin uchungina tashkil etilmaydi. Ularning bosh vazifasi o'quvchilarning o'qish jarayonlariga nisbatan ongli va faol munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Ayni paytda, mazkur jarayonlarda o'quvchining nutqi tabiiy ravishda rivojlanib, boyib boradi. Bunday o'yinlar maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang'ich sinflarda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining beshinchi, oltinchi sinflarida qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda maqollar o'yinlariga yo'g'rilgan jiddiy mushohada jarayonlari bolalarning tafakkurini ham rivojlantiradi, ularning ona tili imkoniyatlari, kuch va qudrati haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Eng muhimi, ularning nutqiy madaniyati o'sib boradi, xalq donishmandligi durdonalarining asl mohiyatini anglab yetishlariga imkon beradi.

Xuddi shuning uchun ham ulardan dars jarayonlarida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda unumli foydalanish ko'plab pedagogik hamda didaktik vazifalarning ancha qulay va samarali tarzda yechilishi uchun munosib omil vazifasini ado etadi.

Maqollardan darslardagi deyarli barcha mavzularni o'rganishda foydalanish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, alohida olingan maqollar yuzasidan ixcham,

qisqa insholar yozish mumkin. Bu talabalar uchun juda qiziqarli mashg'ulot bo'la oladi. Buning uchun ularning yoshi va umumiy dunyoqarashlari, qiziqishlariga mos va munosib bo'lgan maqollardan foydalanish mumkin.

Ko'p o'qigan ko'p biladi; Aql aqldan kuch olar; Bulbul chamanni sevar, Odam – vatanni...

O'quvchilarning vazifasimana shu maqoldaizohlangan ma'noga asoslangan holda izohlab berishdan iborat. Shu jarayonda u yangi fakt va misollarga murojaat qiladi, ularni asoslaydi, umumlashtirib, xulosalar chiqaradi. Albatta, ular og'zaki shaklda ham, yozma shaklda ham amalga oshishi mumkin. Odatda, og'zaki shaklga oldindan maxsus tayyorlanmasdan ham kirishish mumkin. Yozma shaklda esa o'quvchilar oldindan tayyorlanishi, mavzu sinfda muhokama etilishi shart.

Maqollar sarlavha vazifasini ado etadi. Maqollarning sarlavhada bo'lishi mulohaza yo'nalishini ham belgilab beradi. Uning maqsadga muvofiq tarzda davom ettirishi uchun mayoq vazifasini bajaradi.

Maqollarga murojaatning ikkinchi shakli tavsiya etilgan mavzularda maqollardan unumli foydalanishga da'vat bo'lishi mumkin. Buning uchun alohida mavzular olinadi. Undagi asosiy talablardan biri insho matnida, albatta, maqollardan foydalanish bo'ladi. Jumladan, "Bahor" mavzusida bahorga oid maqollardan foydalangan holda insho yoziladi. "Bizning oilamiz", "Jasorat haqida o'ylar", "Yil fasllari", "Rostgo'ylik fazilati", "Tabiat – boyligimiz", "Yaxshilik va yomonlik", "O'zbekiston- vatanim manim" singari mavzular bu yo'nalishda qiziqarli mulohazalarga boy bo'ladi.

Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarda maqollarning mazmun va mohiyatini teran anglashlari, ularni mavzuiy guruhlariga ajratish va tahlil etish, yaxlit umumlashma va xulosalar chiqarishga oid ko'nikma va malakalarning rivoji uchun mustahkam zamin hozirlaydi. Shu jarayonlarda ularning nutqlari boyib boradi, estetik didlari ham tarbiyalanib, kamol topadi. Eng muhimi, ularda mana shunday go'zal va bebaho tafakkur durdonalarini yaratgan ona xalqlariga nisbatan mehr – muhabbatni hosil qiladi.

UCHINCHI BOB BO'YICHA XULOSA

O'zbek, rus va ingliz maqollarini tahlil qilish jarayonida har bir xalqning tili va madaniyatining bir – biriga bo'g'liq ekanligi juda muhimdir. Ushbu bobda tahlil qilingan ayrim maqollar ba'zan har bir xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi. Shu o'rinda ingliz, rus va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha o'zbek, rus va ingliz millatiga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi.

O'zbek, rus va ingliz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda o'zbek, rus va ingliz maqollari bu xalqlarning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bera oladi. O'zbek, rus va ingliz xalq maqollarini mavzu jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilida mavjud bo'lgan maqollardagi mavzularning barchasi ingliz xalq maqollarida ham uchrashi mumkin, degan xulosaga keldik. Har uch tildagi maqollarning bir xil mavzudagi bir-biriga o'xshash ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmang, u har uch tilda o'z muqobil variantiga egadir. Xullas, ingliz, rus va o'zbek maqollarining mavzu doirasi rang-barang va har uch tilda deyarli bir xil mavzular mavjud. Biroq, ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko'proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko'p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidadir. Har uch tildagi maqollarni chog'ishtirma tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz, rus va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi. Oila va qarindosh - urug'chilik munosabatlariga jiddiy qaralishi o'zbek maqollarida yaqqol tus olgan bo'lsa, uy hayvonlariga bo'lgan mehrning kuchliligi ingliz xalq maqollarida ko'proq gavdalanadi. Bundan tashqari, xalqlarning milliy taomlari, milliy kiyimlari ham xalq maqollarida uchraydi. Ana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bu ikki xalqning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni o'rgana olamiz.

Xulosa qilib aytganda, ingliz, rus va o'zbek xalq maqollari bu xalqlarning madaniy merosidir. Ularda ingliz, rus va o'zbek xalqining barcha o'y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l – atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto, ayrim ingliz va o'zbek maqollaridagi mavzular o'xshash bo'lsada, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

UMUMIY XULOSA

Ingliz, rus va o'zbek xalq maqollari xalq og'zaki ijodining paremiologiya sohasi bo'yicha o'rganiladi va o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlanib turadi. Ya'ni ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo'nda hukm tarzida ifodalanadi, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi va o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari maqol, matallarda ibratlilik, pand-

nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o'zining umuminsoniy jihatlarini ko'rsatadi. Asosan, o'zbek, rusva ingliz tiliga maqollar qadimdan to'plovchilik orqali yetib kelgan.

Maqollar ustida qizg'in izlanishlar, asosan XIX-asrdan boshlangan bo'lib, o'zbek folklorshunoligida Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G'ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqulov, R. Zarifov kabi olimlar, asosan, maqollarni yig'ib, ularni to'plam holiga keltirish ishlarida o'z hissalarini qo'shganlar. Keyinchalik maqolva matallarning ichki strukturaviy tuzilishi va boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish, ya'ni maqollar va matallar bo'yicha tarjimashunoslik ishlari boshlangan.

Bu o'rinda M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, G'.Salomov, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyurov, R. Rasulovlarning o'rni beqiyos. Ingliz va rus maqollari ustida ko'plab izlanishlar olib borgan olimlar sifatida Honek, Norik, Mayder, Teylor, Arora, Kuninlarni ayta olamiz. Ular maqollarning o'ziga xos eng muhim jihatlarini fanda isbotlab, asosan, ulardagi strukturaviy tuzilish, qanday badiiy vositalarning ishlatilishi, ijtimoiy hayotdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratganlar va ularni o'z asarlarida berib o'tganlar. O'zbek, rusva ingliz maqollarining folklorda o'rganilish tarixini qiyosiy o'rganish orqali qaysi tilda ularning tadqiq qilish darajasi mukammal yoki sayoz ekanligini ko'rib chiqdik. Bunga ko'ra, maqollarning to'plam holatiga kelishi, badiiy vositalarning ishlatilish o'rnini o'rganish va umuminsoniy jihatlarini ko'rsatish kabi masalalar deyarli bir xil.

Biroq, maqollarning nazariyalariga bag'ishlangan asarlarning ingliz tilida o'zbek tiliga nisbatan ko'pligi ingliz maqollarining nazariy jihatlarini o'zbek maqollariga nisbatan ko'proq o'rganilganligini ko'rsatadi. Ingliz olimlari tomonidan ingliz va o'zbek maqollarining chog'ishtirma masalalari ko'rib chiqilmagan, lekin rus tili bilan qiyoslangan holatini Kuninning ishlarida ko'rish mumkin.

O'zbek tilida o'zbek olimlari tomonidan bu ishga ko'p marotaba qo'l urilgan. Asosan, o'zbek va ingliz maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidadir. Har ikki tildagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi.

Oila va qarindosh - urug'chilik, yaxshilik va yomonlik munosabatlariga jiddiy qaralishi o'zbek maqollarida yaqqol tus olgan bo'lsa, uy hayvonlariga bo'lgan mehrning kuchliligi ingliz xalq maqollarida ko'proq gavlalanadi. Bundan tashqari, xalqlarning milliy taomlari, milliy kiyimlari ham xalq maqollarida uchraydi. Ana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bu ikki xalqning o'zaro o'xshash va farqlilik jihatlarini o'rgana olamiz. Bir so'z bilan aytganda, ingliz, rusva o'zbek xalq maqollari bu xalqlarning madaniy merosidir. Ularda ingliz, rusva o'zbek xalqining barcha o'y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l – atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto, ayrim ingliz, rusva o'zbek maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi. Ingliz, rusva o'zbek maqollarining semantik xususiyatlarini o'rganish jarayonida, ayrim mavzudagi maqollarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqdik va quyidagicha xulosalarga keldik. Ya'ni:

- O'zbek tilida yoritilgan ko'plab maqol va matallarda yaxshilik — eng muhim fazilat bo'lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag'ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Shuning uchun ham "ezgu (yaxshi) fikr", "ezgu (yaxshi) so'z", "ezgu (yaxshi) amal" tushunchalari Avestodan tortib, barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o'rin egallagan. Yaxshilik insonning axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, unda kamtarlik, ochiqko'ngillilik, mardlik, halollik, insoflilik, adolat, rostgo'nlik kabi fazilatlar mujassam bo'ladi. Yomonlik

— yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illat. Yolg'onchilik, pastkashlik, munofikdik, behayollik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo'ladi. Diniy nuqtai nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi.

- Boshqa ko'rib chiqilgan tillarda bo'lsa, keyingi davrlarda yaxshilik va yomonlik inson o'z manfaatlarini himoya qilishda to'g'ri yoki noto'g'ri yo'l tutishi natijasida yuzaga keladi, degan fikr o'rta tashlandi. Mutaakkirlar yomonlikni inson hayotidan chiqarib tashlash uchun uni vujudga keltiruvchi ijtimoiy sharoitni yo'q qilish zarur deb ta'lim beradi va ibratli so'zlardan yomonlik tushunchasini olib tashlashga harakat qiladi.

- O'zbek tilidagi maqollarda esa yaxshilik va yomonlik tushunchalari inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega: uni insonning ulug'ligi yoki tubanligini o'lchaydigan muqaddas taroziga o'xshatish mumkin. Inson shaxsidagi yutuq va kamchiliklar, jamiyatning takomilga erishgan yoki erishmagani shu mezonlar bilan o'lchanadi. Qaysi jamiyatda yaxshilik ko'payib, yomonlik kamayib borsa, o'sha jamiyat axloqiy yuksaklikka, farovonlikka, taraqqiyotga tezroq erishadi; shaxsiy munosabatlarda xiyonat, g'azab, kibr, hasad, qasd, munofiqlik kabi illatlar asta-sekin yo'qolib, xushxulqlik, shirinsuxanlik, halollik, bag'rikenglik singari fazilatlar ko'proq o'rin egallab boradi, natijada jamiyatda yaxshilikning ustuvor bo'lishiga olib keladi.

- Ingliz maqollarini o'zbek tiliga yoki o'zbek maqollarini ingliz tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma'no – mazmuninichuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Aks holda xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o'zining asl ma'nosi butunlay yetkaza olmasligi mumkin;

- Ingliz va o'zbek tilidagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarning katta ko'pchiligi semantik jihatdan bir-birini ta'minlaydi. Har ikki tildagi mehnatsevarlik

mavzusidagi maqollarda insonni mehnatkash bo'lishga undash, dangasalik va ishyoqmaslik insonning eng jirkanch illati sifatida qaraladi;

- O'zbek va ingliz tillaridagi ko'pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma'no- mazmunga maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi;

- Ingliz va o'zbek xalq maqollarining ko'pchilik qismida hayvon obrazlari ifodalangan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini ifodalashdir va hayvon obrazlari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi;

- Hayvon obrazlari keltirilgan ingliz tilidagi maqollarning o'zbekcha muqobil variantlarida aynan bir xil hayvonning nomi ishlatilmasligi yoki umuman hayvon nomi qatnashmasligi maqolning har ikki tildagi umumiy ma'nosiga ta'sir ko'rsatmaydi. Xullas, keltirib o'tgan mavzulardagi maqollarning har ikkala tilda unchalik katta farqlari topilmadi. Biroq asosiy manba sifatida foydalanayotgan kitobimiz K.M.Karamatova va H.S.Karamatovlarning "Proverbs. Maqollar. Пословицы" da ayrim maqollarning variantlari bir-biriga aynan to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham, maqollarning semantik lingvokulturologik jihatlarini chuqur o'rganish va ularni semantik tahlil qilish orqali ingliz va o'zbek tillaridagi ekvivalentlarni to'g'ri tanlay olamiz.

Yozilgan ishdan umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yomonlik va yaxshilik orasida masofa yo'q. Ular doimo yonma-yon yuradi. Chunki xalqimizda "Bir yaxshiga-bir yomon", degan naql bor. Har bir qo'llanilgan maqol, matal, ibratli so'zdan to'g'ri xulosa chiqarish uchun ishlatilganligini anglab yetish lozim. Zero, yaxshilik haqida o'ylashlik o'sha yaxshilikka amal qilishga undaydi. Yomonlikka nadomat esa, o'sha yomonlikni tark etishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012 йил 10-декабрдаги

“Четтиларни ўргаништиришнинг янада такомиллаштириш чоратадбирларини ўргатишда” гиПҚ №1875-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг “Магистратуратўғрисидаги низом” 2012 йил 29 октябрдаги 418-сонли буйруғи.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Ғ Т: Шарқ, 1998 – 235б.
4. Абдуллаев Х.Д. Халқ мақолларининг “Қутадғу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадиий эстетик функциялари: Филол. фан. номзоди ...дис. Т., 2005. – 152 б.
5. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – М.: 1961. – 236 с.
6. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1961. – 76 с.
7. Атаханова Г.Ш. Номинации “возраст человека” в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале англ. языка): Автореф. дис.... канд.филол.наук. – Т., 2006. – 20с.
8. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. В кн.: Лексикология и лексикография. – М., 1977. – 278 с.
9. Влахов, С., Флорин, С. Непереводимое в переводе, - М., 1980. – 244 с.
10. Вяльцева С.И. Речевое использование английских пословиц. – М., 1977 – 106 с.
11. Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Космо-Психо-Логос. – М., 1995. – 232 с.
12. Горький М. Материалы и исследования. Т., 1934. – 146с.
13. Камбарова З.А. Актуализация фразеологических единиц в языке английской газеты. – М., 1977. - 166 с.
14. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 274 б.
15. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 с.
16. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Т.: Фан, 2005. – 268с.

- 17.Реимов Б.Х. Фразеологические единицы английского языка характеризующие эмоциональное состояние человека: Автореф. дис канд.филол.наук. – Ташкент, 2005. – 22с.
- 18.Розина Р.И. Человек и личность в языке // Логический анализ языка: Культурные концепты. – М., 1991. – С.52-56.
- 19.Филицына В.П. О пословицах и поговорках как материале фразеологического словаря. В кн.: Проблемы фразеологии. – М – Л., 1964. – 78 с.
- 20.Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокултурема атамалари хусусида//Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2011. – Б. 49-55.
- 21.Язык и этнический менталитет / Отв.ред. З.К.Тарланов. – Петрозаводск, 1995. – 140б.
22. Якубов О. Эр бошига иш тушса. Сайланма. -Т.:Адабиёт ва санъат, 1987. – 524 б.
- 23.Arora, S. The Perception of Proverbiality. De Proverbio. 1984. – 244p.
24. Azar B.S. Understanding and Using English Grammar. Third Edition. – N. – Y., 1999. – 420 p.
- 25.Azar Â.S., Azar D.A. Fundamentals of English Grammar. Second Edition. – USA.: Longman, 1994. – 420 p.
26. Broukal M., Pineiro C. Grammar. Form and Function. N1. McGraw-Hill. – New–York.: 2004. – 416 p.
27. Broukal M., Pineiro C. Grammar. Form and Function. N2. McGraw-Hill. – New–York.: 2004. – 265 p.
28. Broukal M., Pineiro C. Grammar. Form and Function. N3. McGraw-Hill. New–York.: 2004. – 385 p.
- 29.Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. T. 1. – T., 1968. -198 b.
30. Close R.A. A Reference Grammar for Students of English. – M.: Prosvescheniye, 1979. – 342 p.

31. Falk, J. Linguistics and language: a survey of basic concepts and implication. 2nd Ed,- Canada: Michigan University Press, 1978, – 561p.
32. Fries Ch. The Structure of English. An Introduction to the Construction of English Sentences. – London.: Longman, 1963. – 385 p.
33. Galperin I.R., Stylistics. – M.: Higher School Publishing House, 1971. – 343p.
34. Íiraga M.K. Cultural, Psychological and Typological Issues in Cognitive Linguistics. – Armsterdam, Philodelphia: Benjamin, 1999. – 338 p.
35. Honeck, R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA.: Lawrence Erlbaum, 1997. – 277p.
36. Ilyish B. The Structure of Modern English. – L.: Prosvesheniye, 1971. – 366 p.
37. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990. - 303b.
38. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.: Mehnat, –2000. –398 b.
39. Korunets I.V. Theory and Practice of Translating. - Vinnytsia: Nova Knyga, 2001. –265p.
40. Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son, - B. 20.
41. Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. –103 p.
42. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. – 207b.
43. Meider, W. Dundes, A. The Wisdom of Many: Essays on the Proverb. - NewYork: Garland, 1995. –340 p.
44. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari . – T.: Sharq, 2005. –508 b.
45. Mollanazar, H. Principles and methodology of translation. - Tehran: SAMT, 2001.– 215p.
46. Newings M. Advanced Grammar in Use. –Cambridge: Cambr. Univ. Press, 2002. – 252 p.

47. Norrick, N.R. How Proverbs Mean? Semantic Studies in English Proverbs. - Amsterdam: Mouton, 1985. – 232 p.
48. Raymond Murphy. English Grammar in Use. Second Edition. Cambr. Univ. Press. 1995. – 350 p.
49. Razzaqov H. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor. – Toshkent, 1965. – 236 b.
50. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi T., 2000. – 156 b.
51. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir. T.: O'zbekiston Madaniyati. – 1965. – 213 b.
52. Samovar Larry A., Richard E. Porter and Lisa A. Stefani. Communication between Cultures. Edited by Randall Adams. Third ed, Wadsworth Series in Communication Studies. - Belmont, CA: Wadsworth Publishing, 2009. – 412 p.
53. Siedl J., McMordie W. English Idioms and How to Use them. – M., 1983. – 265p.
54. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi(o'quv-uslubiy qo'llanma), Namangan. 2008. – 120 b.
55. Swan M., Walter C. English Grammar. – Cambridge: Cambr. Univ. Press, 1990. – 152 p.
56. Taylor A. The Proverb. – Harvard University Press, 1985. – 234 p.
57. Trench, C.R. On the Lessons in Proverbs. - New York: Redfield, 1853. – 157p.
58. Teliya V. Bragina N. Oparina E. Sandomirskaya I. Phraseology as a language of culture: its role in the representation of a collective mentality in Cowie (ed.) 1998. – 203p.
59. Xudoyberganova D. O'xshatish mazmunini ifodalovchi matnlar. // O'TA, 2012, 6-son, - B. 15.
60. O'zbek xalq maqollari, 2-tom T.: Fan. 1987. – 370 b.
61. O'zbek xalq maqollari 1-tom T.: Fan. 1987. – 365 b.

Foydalanilgan lug'atlar:

62. Qobuljonova G. Metafora va o'xshatish. O'TA, 1999/ 5 son, - 53b.
63. Бердиёров Х, Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 232 б.
64. Маъруфов Т. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Москва.: «Рус. язык», 1981, – 520 б.
65. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили этимологик лугати (туркий сўзлар). - Тошкент: Университет, 2000. – 402 б.
66. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати II/ араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. – Т.: Университет, 2003. – 335 б.
67. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. Ўзбек мақолларининг изохли луғати. Т., 1990. – 523 б.
68. Cambridge Advanced Learners Dictionary. 2003. (Electron Version).
69. English Vocabulary in Use. Michael McCarthy., Felicity O'Dell. Cambridge University Press, – Cambridge, 1994. – 296 p.
70. Electronic Oxford Dictionary. 2005. (Electron Version).
71. Fergusson R. Dictionary of Proverbs, Penguin Books, 1983. – 325 p.
72. Hojiyev A., Nurmonov A. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lugati. – Т.: Sharq, 2001.
73. Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003. – 364p.

Internet saytlari:

1. <http://www.oxfordhouse.com>
2. <http://www.yourdictionary.com>
3. <http://www.english-zone.com>
4. <http://www.longman.com>
5. <http://www.encarta.com>
6. <http://www.uzbekistan.org/news/archive/302>

7. <http://www.phrases.org.uk/meanings/proverbs.html>
8. <http://www.thesaurus.com/browse/proverb>
9. <http://www.cogweb.ucla.edu/Discourse/Proverbs/English.html>.
10. http://www.executableoutlines.com/pdf/pr2_so.pdf